

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI
KOMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI

“TASVIRIY SAN’AT” FAKUL’TETI
“DASGOHLI RANG TASVIR” KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Fakul’tet dekani
A.A. Yusupov
« 11 » iyun 2018 yil

5150800 – Tasviriy san’at ta’lim yo‘nalishi
Dastgohli Rangtasvir bo‘limi 02-14-guruh talabasi

TO’RAYEV ILHOMJON RAHIM O’G’LINING
“BOBOLAR MEROSI” RANGTASVIR ASARI MAVZUSIDAGI

BITURUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbari: “Dasgohli rangtasvir”
Kafedrasi professori,
O‘zbekiston xalq rassomi
S.G’ Rahmetov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Dasgohli rang tasvir”
Kafedrasi mudiri
Xaitov Ə.X.Xaitov
« 11 » iyun 2018 yil

Toshkent-2018

К.Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти
Тасвирий санъат факультети “Дастгоҳли рангтасвир”
бўлимининг 4-боскич талабаси **Тўраев Илҳомнинг**
“Боболар мероси” мавзусидаги малакавий битирув ишига

ТАКРИЗ

Ушбу малакавий битирув иши ёзма ва амалда талқин этилган бўлиб, мойбўёқ техникасидасида бажарилган. Малакавий битирув ишининг ёзма қисмининг биринчи бобида жаҳон тасвирий санъатининг тараққий этиши ва Ўзбекистон тасвирий санъатининг ривожланиши ҳақида ёритиб берилган. Икинчи бобда эса мустақиллик даврида маиший жанрнинг ёритилиши ва Ўзбекистон рассомлари ижодида маиший жанр ҳақида батафсил баён этилган. Учинчи бобда эса “Боболар мероси” мавзунинг яратилиш тарихи, танланганлик сабаблари, унинг техникаси, эскизлар таҳлили ҳақида, уларнинг аҳамиятли томонлари кенгрок ёритиб берилган.

Ушбу малакавий битирув ишини “Боболар мероси” деб номланиб, унда асосан миллий ҳунармандчилигимиздан бири тандир ясовчилар авлоди ифодаланган. Нон азиз неъмат бўлганидек, тандир ва уни яратиш ҳам умрибоқий ҳунар ҳисобланади. Шундай экан тандир ота-боболардан қолган ва уни фарзандлари давом этиб келмоқда. Асарнинг биринчи планида тандир ясаётган ёш ҳунарманд усталар акс этган. Қуёш нурлари остида шиддат билан ишлаётган ушбу йигитлар боболар меросининг давомчиларидир. Композициянинг чап томонида тандирга суяни турган, қоптокни қўлтиқлаган ёш бола томошабинга қараб турган ҳолда тасвирланган ва бу асарни ритмини сақлаб турибди. Орқа планда эса бир неча тандирлар композицияни тўлидириб турибди. Композицияда асосан совук ранглардан фойдаланган бўлсада, қуёш нурлари асарга илиқлик берапти.

Асар ўзига хос композицион ечимда ифодаланган. Композицияда перспектива, предметлар жойлашуви, рангларнинг уйғунлиги, ҳар бир деталдан ўз ўрнида тўғри фойдаланганлиги асар моҳиятини янада тўлақонли очиб беради.

Тўраев Илҳомнинг ушбу малакавий битирув ишида олдида қўйилган мақсад ва вазифалар тўла очиб берилган ва ютуқларга эгадир. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ушбу битирув малакавий ишини аъло баҳога лойиқ деб биламан.

К.Бехзод номидаги МРДИ
“Музейшунослик” кафедраси ўқитувчиси



Mazkur malakaviy bitiruv ishi "Dastgohli rangtasvir" kafedrasida bajarilgan. "Dastgohli rangtasvir" kafedrasining 2017 yil 22.12 dagi № 7 - sonli majlisda hamda Tasviriy san'at fakul'tetining "31" qahar 2018 yildagi № 4 -sonli fakul'tet Kengashida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Taqrizchi:

Malakaviy bitiruv ishi himoyasi 2018 yil 11-iyun soat 9.00 da Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rasomlik va dizayn institutida o'tkaziladi.

Manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshox ko'chasi, 123-uy.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
ASOSIY QISM	
I-BOB. TASVIRIY SAN'ATNING RIVOJLANISH TARIXI.....	10
1.1. Jahon tasviriy san'atining taraqqiy etishi.....	10
1.2. O'zbekiston tasviriy san'atining rivojlanishi.....	16
II-BOB O'ZBEKISTON DASTGOHLI RANGTASVIR SAN'ATIDA MAISHIY JANRINING YORITILISHI.....	32
2.1. Mustaqillik davrida maishiy janrining yoritilishi.....	32
2.2. O'zbekiston rassomlari ijodida maishiy janr.....	37
III-BOB. “BOBOBLAR MEROSI” ASARINING TAHLILIIY QISMI.....	42
3.1. “Bobolar merosi” rangtasvir asarining maqsadi va g'oyasi.....	42
3.2. “Bobolar merosi” rangtasvir asarining yaratilish tarixi.....	44
XULOSA.....	47
TAYANCH ATAMALAR	49
ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	51
ILOVALAR.....	53

*"Talim tizimini isloh qilish vazifalari
muvoqqatli hal etilsa, ijtimoiy-siyosiy
iqlim keskin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik
qadriyatlar qaror topadi. Inson jamiyatdagi o'rnini
ongli ravishli o'zi yangilaydi".¹*

I. Karimov

KIRISH

Buyuk istiqlol bois o'zbek xalqi ijtimoiy hayotida yangi davr boshlandi. Jumladan, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, ularni xalqning bebaho boyligi sifatida avaylab-asrash va kundalik hayotiimizga tatbiq etish favqulodda muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asrning so'nggi o'n yilligiga kelib jamiyatdagi jarayonlar murakkab tusga kirdi. O'zbekiston hududidagi tarixiy o'zgarishlar natijasida yangi mafkuraviy qarashlar shakllana boshladi. Milliy davlatchilik qaror topishining dastlabki yillaridanoq ma'naviy tiklanishga katta e'tibor qaratildi, o'tmishni qayta ko'rib chiqishga zarurat tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yangi jamiyatni qurish, barqaror taraqqiyotga erishish borasidagi fikrlaridan dastur sifatida keng ko'lamda foydalanildi. Jumladan, "Bizning maqsadimiz bir necha avlod mehnati bilan yaratilgan narsalarni yo'qotmaslik, ularning eng yaxshilarini saqlab qolish, demokratik me'yorlarga, milliy manfaatlarimizga, mustaqilligimizga mos kelmaydiganlarini qayta tashkil etishdan, mazkur tuzilmalarni yangi mazmun bilan boyitishdan iboratdir.

O'zbek xalqining boy madaniyati, ta'lim, maorif tizimi, fan totalitarizmdan qolgan meros parchalanib tashlanishi mumkin emas. Biz tanlab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'alariga, odatlariga, madaniyati va tiliga, shuningdek, jahon

¹ I.A.Karimov. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T.: "Sharq" 1998. B 103.96 b.

sivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalarni yangi mafkuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iboratdir"².

1991 yil O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Shu tariqa vatandoshlarimizning avlod-avlodlari qalbida asrlar davomida yashab kelgan orzu va armon-mustaqillik, erkinlik, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi haqiqatga aylandi. Faqat 24 yil ilgari biz boshimizni tik tutib, hech narsadan hadiksiramay, hayiqmay, bor ovoz bilan milliy erkinligimiz to'grisida gapirish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shuning o'zi istiqlolning ilk hayotbaxsh ma'naviy samarasi edi.

Istiqlol O'zbekiston qaddini tikladi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'lini bugunga kelib jahonning yuzlab mamlakatlari tan oldi. U bilan diplomatik darajada mustah il, ikki yoqlama va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatayotgan davlatlar soni kun sayin ko'paymoqda.

O'zbekiston bugun BMT va boshqa ko'pgina nufuzli halqaro tashkilotlar va forumlarning haqiqiy teng huquqli a'zosi. U dunyo miqiyosida avvalo suveren demokratik davlat va ayni payitda xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida ish yuritmoqda. Istihqol uni xuddi shu tariqa qayta yaratmoqda.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan respublikamiz cheksiz kelajakli va nurafshon tarixiy jarayonning boshida turibdi. Prezidentimiz risolalarida qayd etilganiday, hozirgi kunda jamiyatimiz uzoq yo'lning boshida aniqrogi, tarixiy chorrahadadir.

Istiqlol siyosiy va ma'naviy uygonish sohalarida katta yutuqlarni in'om etdi. Halqimiz o'zini siyosiy va ma'naviy mustaqilligini tobora aniqroq tushunib etmoqda. U eski mafkuraning va mutelik psixologiyasining kishanlaridan tozalanib, o'z tarixiga, hozirgi kuni va istih boliga boshh acha ko'z bilan qaramoda.

Milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Navro'z bayrami, asriy an'analarga ega milliy urf-odatlar, nishonlanadigan bo'ldi. Sho'ro mafkurasi inkor etgan tarixiy qadriyatlar, siymolar, manba'lar, madaniy boyliklar kayta tiklanildi. Amir Temur, Bobur, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy,

²I.A.Karimov. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari. T.: "Sharq" 1998. B 103.96 b.

Bahovuddin Naqshband kabi ulug siymolarning taqdiri, hayoti, merosi ma'naviyatimizga qaytarilayotgani istiqbolning bebaho galabalaridir.

Biz tomonimizdan o'rganilayotgan mazkur mavzu bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning tayyorgarligini masalalari S.I.Arxangelskiy, V.P.Bespalko, V.A.Slastenin, U.N.Nishonaliyev, A.A.Abduqodirov, A.R.Xodjaboev, R.Xasanov, N.Saidaxmedov, O'.Q.Tolipov, S.S.Bulatov, N.A.Muslimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi.

Tasviriy san'at ta'limining nazariy va amaliy asoslari A.T.Antonov¹, V.I.Denisenko, S.P.Lomov, E.V.SHoroxov, A.P.YAshuxin-larning² oliy o'quv yurti talabalarining bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga, N.S.Bogolyubovning talabalarni mustaqil ish faoliyatiga individual yondoshish aspektlariga, O.Soans³ va V.V.Booslarning⁴ badiiy ta'limda talabalarining mustaqil ta'limining ilmiy – metodik asoslariga bag'ishlangan ishlarida tadqiq etilgan. Biroq bu ikkala ilmiy ishda qalamtasvir fanidan bilim va malakalarni shakllantirish jarayonida o'qitishning intensiv yo'l, shakl va vositalari tavsiya etilgan.

So'nggi yillarda yoshlarga milliy san'at namunalarini ilmiy asoslangan yangi shakli, usullari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab voyaga etkazish borasida ko'plab amaliy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Yoshlarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadog'at ruhida tarbiyalab voyaga etkazishda tasviriy san'at xususan, tasviriy san'at predmetining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurti fakultetlarida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqazo etib, pedagog va olimlar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda “Bobolar merosi” rangtasvir asarini yaratish. Shu nuqtai

1. Антонов А.Т. Активизация самостоятельной деятельности студентов ХГФ в процессе рисования с натуры // Методические указания по совершенствованию учебного процесса в педвузах. - Владимир: Изд-во Владимирского гос. ун-та, 1988. - С. 36-39.

²Япсухин А.П., Ломов С.П., Живопись. - М.: 1999.

³Соанс О.П. Использование самостоятельной работы студентов и учащихся в художественных заведениях (на основе вспомогательных дисциплин рисования): Автореф. дис.... канд. пед. наук. - М., 1975.

⁴Боос В.В. Самостоятельная работа по рисунку как средство активизации учебной и творческой деятельности студентов: Автореф. дис.... канд. пед. наук. -М., 1991.

nazardan maishiy janri O'zbekiston rangtasvirida alohida o'ringa ega, va shu bilan birga "Bobolar merosi" rangtasvir asarini ishlash vazifasi qo'yildi. Kompozitsiya san'ati bu nozik xislarga tayangan jarayonki, unda butun borliq bir nuqtalar tutashib, murakkab shakllar va ruxiy kechinmalarning g'ayrioddiy namunasi vujudga keladi. Urf odatlar va uning tasviriy san'atdagi toliq aks etmagan tarixiy tahlili dolzarb vazifalaridan biri ekanligi tasdiqlandi. Shu bilan birga "Bobolar merosi" rangtasvir asarini, tasvir orqali tahlil qilish, devoriy rasmlarda kompozitsion tuzilishi va zamonaviy ko'rinishlaridan foydalanish zaruriyati yuzaga keladi.

Tasviriy san'at predmeti ayniqsa rangtasvir fani o'qitiladigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi va barcha predmetlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tasviriy san'at bilim va malakalarni egallagan o'quvchi kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqalarni yuqori darajada o'zlashtira oladi.

Hozirgi kunda tasviriy san'atni rivojlantirishning eng asosiy vazifalaridan biri va o'quvchilarga puxta bilimlar berishning asoslaridan biri quyidagilardan iboratdir.

Rangtasvir fani bo'yicha talabalar bilimlari va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

Rassom o'z sohasida chuqur ma'lumotli mutaxassis bo'lmog'i, zamonaviy san'at jarayoni yo'nalishlarini yaxshi anglab tushunishi, o'tmish madaniy merosimizga esa to'g'ri baho bera olishi, tasviriy san'at terminlarini chuqur bilishi bilan birga turli badiiy materiallar vositasida amaliy ishlarni bajarishni mukammal egallagan bo'lishi lozim.

Rangtasvir - bu ranglar bilan ishlash bo'libgina qolmay, inson hissiyatini shakllantiradi, uning san'at olamini nozik ilgab olishga o'rgatadi. Tasviriy san'at o'zining beqiyos boyligi, go'zalligi bilan insonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi va zavq bag'ishlaydi. Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at badiiy tarbiyaning asosiy vositalaridan biridir.

Rangtasvir nazariy va amaliy mashg'ulotlardan iborat mashg'ulotlar jarayonida talabalar tasvirlashning qonun-qoidalarini yanada puxta egallab boradilar. Ta'lim jarayonida foydalaniladigan o'quv qo'yilmalariga alohida ahamiyat beriladi, shuning uchun tanlanadigan qo'yilmalar milliy amaliy san'at buyumlari, gipsli me'moriy

naqsh bo'laklaridan namunalar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Qo'yilmalar kompozitsion jihatdan qiziqarli, mazmunli bo'lishi zarur. Har bir vazifa metodik jihatdan puxta o'ylab tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlardan olingan bilimlar talabalarning mustaqil mashg'ulotlari jarayonida mustahkamlanadi.

Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishni amalga oshirishda quyidagi maqsad va vazifalarni bajariga harakat qilindi:

- tasviriy san'at tarixi, uning rivojlanish bosqichlari to'g'risida ma'lumot to'plash;
- tasviriy san'atning asosiylaridan biri bo'lgan rangtasvir qonun qoidalarini o'rganish;
- o'tmishda yashab ijod etgan sharq san'ati namoyandalari, ularning ijodiy yo'li va tasviriy san'atda ijod etishi bilan tanishish, ijod uslublarini o'rganish.

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy taxlili.

- Tasviriy san'at ta'lim davlat standartlari asosida, yoshlarga tasviriy san'atning asoslaridan biri bo'lgan rangtasvir mashg'ulotlarida "Bobolar merosi" maishiy kompozitsiyasi hozirgi holatini aniqlash va uning istiqbol yo'llarini ishlab chiqish;
- Tasviriy san'at ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassomlarni tayyorlovchi muassasalar ish faoliyatini ilmiy-ijodiy jihatdan tahlil etish;
- Yoshlarni yuksak didli, Vatanga sadoqat, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan kishilar bo'lib etishishlarini tayyorlash.
- Tasviriy san'atdan iqtidorli yoshlarni izlash, ularga yuqori bilimlar berish, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya ayniqsa maishiy mashg'ulotlarini o'tishda nazariy va amaliy ish tayyorlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishda tasviriy san'atning asoslaridan biri bo'lgan rangtasvirda "Bobolar merosi" kompozitsiyasini chuqur tahlil qilindi va undagi qonun qoidalar, tasvirlashning ijodiy asoslari, tasviriy san'at

texnologiyalaridan foydalangan holda ijodiy ish olib borish kabilar bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot predmeti va ob’ekti. Zamonaviy dastgohli rangtasvir asarida ob’ekti etib asar markazida hunarmandlar va tandirlar tasvirlangan. MBIning yoritishda rassomlarning ijodiy ilmiy manbaa sifatida olindi. Rassomlarning maishiy janriga badiiy yondoshuvlari, ilmiy tahlillari, ijodiy na’munalari, rassomlarning hayoti va ijodiy. Tadqiqot predmetini xolst, moybo’yoq tashkil qiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Tadqiqot olib borilgan ushbu asardan kelgusi rassomlar ijodida, oliy o’quv yurtlarida, kollejlarda ilmiy manbaa, ijodiy na’muna sifatida foydalanish mumkin. Zamonaviy dastgohli rangtasvirda maishiy janri xususida mukammal to’plam hosil qilingan. Ushbu BMIning taniqli rassomlar tarixi va bugungi kundagi o’rni xususida, to’liq bog’liqlik bor. Mazkur yozma manbaadan amaliyotda maishiy janri bilan birgalikda manzara janriga ham murojaat etishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: kirish, 3 bob, 6 ta paragraf, xulosa, tayanch atamalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

ASOSIY QISM

1-BOB. TASVIRIY SAN'ATNING RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Jahon tasviriyl san'atining taraqqiy etishi

Yangi asr boshida madaniyl o'zgarishlar unchalik sezilarli bo'lmasa-da, ammo ayrim mamlakatlarda san'atda yangicha tamoyillar namoyon bo'lmoqda. 1990-yillar o'rtalarida Garbiyl Evropada yangi texnologiya va elektron mediani rivojlantirish va tadbiq etish sohasida dadil qadam qo'yilishi badiiy qoyalarning kengayishiga olib keldi. G'arbda endilikda san'at ma'lum bir millatni anglatuvchi qobiyl sifatidagi tarixiy rolini o'tab bo'ldi yoki uni rad etdi. Shuning uchun jahon san'atidagi hozir mintaqalar doirasida madaniyl yaxlitlashuv namoyon bo'lmokda.

Evropa mamlakatlarida umuminsoniy g'oyalar namoyishi keng avj oldi. Endilikda milliy maktablar muammolarini olg'a surish, u yoki bu mahalliy madaniyat xususiyatlarini ilohiylashtirishga intilish birmuncha eskirib, jahon badiiy jarayonining asosiy yo'nalishiga xalaqit berayotgan unsurga aylanmoqda. Hozirgi madaniyatshunoslikda kelajakni milliy maktablar emas, balki rassomning ijodiy o'ziga xosligi belgilaydi, degan faraz keng yoyilgan. Bular san'atdagi mahalliy maktab doirasida zamonaviyl tamoyillar ta'siri kuchayishini bildiradi. Shuningdek, hozirgi badiiy jarayon badiiy idrok tushunchasiga turli nuqtai nazardan qarashni taqozo qilmoqda.³

Ma'lumki, G'arbiyl Evropa mamlakatlarida postmodern modernizm san'ati o'rnini egallaganiga ancha bo'ldi. Postmodern XX asrda evropacha badiiy andozaga moslashish yo'lini bosib o'tdi. Sharq mamlakatlarida esa bir necha o'n besh yillardan beri modernizm postmodern bilan birga yashab kelmoqda. Bizda postmodern avangarddan keyin emas, balki sotsrealizm va modern ruhidagi milliy uslubning turli shakllaridan keyin vujudga keldi.

O'rta Osiyo san'ati endilikda sho'ro davriga xos illatlardan xalos bo'ldi. O'rta Osiyo tasviriyl san'ati keyingi paytda etnomadaniyl an'analar va XX asrdagi barcha

³ <http://eduportal.uz/jahon.tarixi.8/band/9-10.htm>

badiiy tajribalarni o'zlashtirish, "G'arb-Sharq" yangi madaniyatining ilg'or jihatlaridan ta'sirlanish asosida rivojlandi.⁴

Rangtasvir juda qadimiy san'at. Uning asoslari g'oyadagi tasvirlardan boshlanadi. Antik davr rassomlari rangtasvir asarlarida juda katta ta'sirchanlikka erisha olishgan, bu naturaga katta diqqat e'tibor qarashdan, shu bilan birga rangtasvir texnologiyasiga kiritilgan yangiliklar bilan bog'liq bo'lgan. O'rta asrlarda turli janrlardagi kartinalarning yaratilishi rangtasvir tarixini boyitdi. Keyingi yuz yilliklardagi turli oqim va yo'nalishlarda ijod qiluvchi rassomlarning ijodiy izlanishlari juda ko'plab yangi rangtasvir oqimlarini (realizmdan abstraksionizmga) vujudga keltirdi.

Quyi paleolit davrida yashagan odamlarning ijodida ularning hayvonlar dunyosi, tabiat haqidagi tasavvurlari o'z aksini topgan. Bu tasvirlarda asosan ov manzaralari aks etgan. G'oyalarda faqat rangtasvir asarlarigina emas, balki grafik va bo'rtma g'oya tasvirlari ham saqlanib qolgan. Ibtidoiy davrlardagi g'oya rasmlari o'zining mukammalligi, hayvonlar anatomiyasi, harakatining, jun fakturasining aniq berilishi va obrazli ta'sirchanligi bilan bizni hozirgi davrgacha lol qoldirib kelmoqda. Tasvirlar ma'naviy madaniyatimizni avloddan-avlodga etkazishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Antik davrlarda rassom dunyoni qanday ko'rsa o'shanday tasvirlashga harakat qilgan.

Yorug'-soya printsiplari, perspektiva elementlari, hajmli-fazoviy rangtasvirning paydo bo'lishi shular bilan bog'liq bo'lgan. Yunon rassomlari inson tanasining tuzilishi, proporsiyasi, harakat

plastikasini o'rganishgan. Rassomlar freskalardagi yunon vazalarida insonning xaqiqiy realistik tasvirlarini tasvirlashga erishishgan. Rangtasvir asarlarida borliqni tasvirlashning yangi imkoniyatlari paydo bo'ldi. Turar joylar, maqbaralar, ibodatxonalar va boshqa inshootlar rangtasvir asarlari bilan bezatilgan. U arxitektura va xaykaltaroshlik bilan badiiy, kompozitsiyani tashkil etgan. O'rta asr rangtasviri diniy mazmunga ega bo'lgan roman davri va asosan gotika davrida san'at sobor

⁴ Tahrir hay'ati "O'zbekiston san'ati" (1991-2001 y). – T.: SHarq, 2001y.

uchun xizmat qilgan, shuning uchun ham rangtasvir asarlari bilan faqat soborlar bezatilgan. Undagi ranglarning jarangdorligi, asosan lokal ranglar ishlatilishi, konturlarining ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Kartina va freskalarning foni shartli, neytral yoki tillarang bo'lgan, Ranglarning simbolikasi katta rol o'ynagan.

Gotika rangtasvirida vitraj san'ati eng katta o'rin egallagan. Intererning sirli ko'lagasida oynalarni to'ldirib turuvchi vitrajlar yorqin ko'k, sariq, qizil ranglar bilan jilvalangan. U o'zgacha bir ruxiy sharoitni bergan. Hozirgi davrda Shartr soborida vitrajlarining eng go'zal namunalari saqlanib qolgan.

Gotika davri - kitob miniatyurasi va boshqa dekorativ - amaliy san'at turlarining gullagan davri bo'ldi.

Quyi gotika davri portretlari o'zining individual xususiyatlari, obrazlarining yuksakligi bilan ajralib turadi.

Gotika san'atida psixologik tushkinlikdagi lirizm va tragizm, yuksak ma'naviyat va sotsial satira, aniq hayotiy tuzatishlar va fantastika organik ravishda bog'lanib kelgan. Jamiyatda rassomlarga bo'lgan munosabat o'zgarib ketdi. Ularning mehnati e'tiborga olinib boshlandi. Yozma manbaalarga ko'ra O'zbekiston hududida tasviriy san'at qadim – qadimdan rivojlangan bo'lib, boy zadogonlarning uylari, saroy va mehmonxonalar turli tuman rasmlar, haykaltaroshlik na'munalari bilan bezatib kelingan. Bu rasm va haykaltaroshlik na'munalarida o'sh davr kishilarining qiyofasi o'z aksini topgan. Bu davrda ishlangan portretlarda aks etgan hukmdorlarning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki fe'l-atvori ham haqqoniy tasvirlanishi jihatida e'tiborga loyiq.⁵ XX asr O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atining shakllanish va rivojlanish yillari bo'ldi. Milliy uslub rivojlanib bordi. O'zbek zamonaviy san'ati O'rta Osiyo milliy san'atiga xos uslub bo'lib, Yevropa realistik san'ati uslubi, yangi shakllanib kelayotgan avangard ko'rinishlariga tayangan holda shakllandi. U yoki bu uslubni aynan qaytarib yoki tahlil qilib emas, balki, davr talabi, g'oyaviy yo'nalishi va ijodkorning shaxsiy qarashi va professional maxorati asosida ishlanib, o'ziga xos qaytarilmas joziba kasb eta bordi.⁶

⁵ "San'at yoshlar nigohida" T-2014. 124 b.

⁶ "San'at tarixi" Ne'mat Abdullayev. 2/1. "San'at" T-2001. b. 165.

Uyg'onish (Renessans) - jahon san'ati rivojidadagi eng buyuk davrlardan biri hisoblanadi. Uyg'onish davri G'arbiy va Markaziy Evropa mamlakatlari madaniyati tarixida o'rta asr madaniyatidan yangi davr madaniyatiga (Italiyada - XIV-XVI asrlar, boshqa mamlakatlarda - XV-XVI asrlar) o'tish davri bo'ldi. Uyg'onish davri ideallari insonparvarlik dunyoarashi asosida ko'rildi.

Yangi tarixiy davrda antik davr merosiga qiziqish kuchayib ketdi. Rassomlar u davr asarlaridan faqat nusxa ko'chirib qolmasdan. Balki yangi pozitsiyada turib ko'zdan kechirdilar. Inson va uni o'rab turgan dunyoni o'rganishga yo'naltirilgan insonparvarlik san'at printsiplari rivojlandi. Real dunyo va inson eng katta boylik sifatida ko'klarga ko'tarildi.

Bu yangi sistema ko'pchilikda qiziqish uyg'otgan plastik san'atda munosib o'rin egalladi. Tasviriy san'at turlari orasida rangtasvir eng asosiy hisoblanadi. Ayniqsa dastgohli rangtasvirga qiziqish orta bordi. Diniy va mifologik mavzulardagi rangtasvir kompozitsiyalarida portret, maishiy va tarixiy ko'rinishlarda dunyoviy uyg'unlikda o'z aksini topdi. Bu fikrlar Leonardo da Vinchi ijodida to'liq o'z aksini topdi. Masalan, "Jokonda" (Mona Liza) asarini o'sha davr simvoli sifatida ko'rish mumkin. Rangtasvirchilar yuksak maxorat bilan madonnalarni tasvirladilar. Ular bu yorqin, esda qoluvchi obrazlari orqali dunyoviy go'zallikni tarannum etishgan. Uyg'onish davri rassomlari ijodining markazida mustaqil, hartomonlama rivojlangan shaxs turgan. Yangi tasviriy sistema naturani o'rganish asosida ko'rildi. qajmni tushunish va uni yorug'-soya yordamida masalasini Mazachcho birinchi bo'lib ilgari surdi. Ilmiy asoslangan chiziqli va havo perspektivasi, yorug'-soya qonuniyatlari yaratildi. Bu Evropa san'ati (Frantsiya, Ispaniya, Germaniya, Angliya, Rossiya) ning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uyg'onish davri buyuk insonlari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelandjelo, Jorjone va Titsian, Tintoretto o'z ijodlarida davrning yangi dunyo qarashini aks ettirdilar. Niderlandiya, Frantsiya va Germaniya (XV-XVI asrlar) san'atining rivojlanishini Shimoliy Uyg'onish deb yuritiladi. Rangtasvirchilardan Yan Van Eyk, katta P. Breygelning ijodi o'sha davr san'atining cho'qqisi hisoblangan. Germaniyada nemis Uyg'onishining buyuk rassomlaridan biri A. Dyurer hisoblangan.

Elladaliklar san`ati Qadimgi Rim san`atiga ta`sir etdi. Rimliklar Grek san`atini e`zozladilar, o`rgandilar va uni yangi pog`onaga olib chiqdilar. Antik madaniyat va san`at tarixi 476 yili Rim impyeriyasining qulashi bilan tugallanishini ham shu bilan izohlash mumkin.⁷

Yevropa xalqlari shu san`at va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma`naviy boyliklarga murojaat qilib keldilar. Bugungi Yevropa san`ati va teatri, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi. o`yg`onish davri, XVII asrda paydo bo`lgan klassitsizm badiiy oqimi namoyandalari ijodi ham antik dunyo san`atiga taqlid qilish asosida rivojlanadi. O`rta Osiyo xalqlari, jumladan O`zbekiston xalqlari ham ellinlar madaniyati va san`atidan baxramand bo`ldilar. Buni O`zbekiston tuprog`idan topilgan va topilayotgan grek madaniyati va san`atiga oid juda ko`p namunalar yoki ular ta`sirida yaratilgan madaniyat yodgorliklari ham isbotladi.⁸

Ma'naviy madaniyat va san'atdagi Uyg'onish davri Evropa san'atining keyingi rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Unga qiziqish hozirgi davrda ham saqlanib qolgan.

XVII-XVIII asrlarda Evropa rangtasvirining rivojlanish jarayoni murakkablashib ketadi, o'z an'analari va xususiyatlariga ega bo'lgan milliy maktablar vujudga keladi. Rangtasvirda psixologik muammolar chuqurlashib ketadi. Insonni o`rab turgan atrof-muhit, kundalik hayotga va real voqea - xodisalarga murojat qilish rangtasvirda ham janrlarning paydo bo`lishiga olib keldi. Bu janrlar manzara, natyurmort, portret, maishiy janr va xakozolar edi. San'atda turli stildagi yo`nalishlar yaratildi.

O`rta asrlarda Evropa san'atida diniy-mifologik obrazlar qadrlandi, ayrim ustalar psixologik jihatdan anih portret asarlar yaratdilar. Bunga misol, Naumberg shahri soboridagi grafinya Uta haykali; Pragadagi avliyo Vita soboridagi haykal-portretlardir.

Qadimgi Misrda haykaltaroshlar odamning ichki hissiyotlariga chuqur kirib bormasalarda, uning tashqi qiyofasini etarli aniqlik bilan o`xshatganlar. Grek ustalari

⁷ "San`at tarixi" Ne'mat Abdullayev. 2/1. "San`at" T-2001. b. 165.

⁸ www.arxiv.uz

esa xudolar va afsonaviy qahramonlarning, shoir, faylasuf va jamoat arboblarning siymolarni ideallashtirilgan holda tasvirlab o'zlarining go'zallik olamiga munosabatlarini plastik echim bilan ifodalaganlar. Keskin psixologik harakterlilikni hayron qolarli darajada haqqoniyligi bilan qadimiy Rim portret-haykallari ham alohida ajralib turadi. O'zining paydo bo'lishi bilan buyuk yangilik bo'lgan timsoliy-ramziy ahamiyatga molik bo'lgan portretlar Misrda eramizdan avvalgi IV asrlarda yaratilgan rangtasvir portretlari ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Keyinroq bu portretlar ular topilgan joyni nomi bilan «fayum portretlari» deb atadilar.

O'rta asrlarda Evropa san'atida diniy-mifologik obrazlar qadrlandi, ayrim ustalar psixologik jihatdan aniq portret asarlar yaratdilar. Bunga misol, Naumberg shahri soboridagi grafinya Uta haykali; Pragadagi avliyo Vita soboridagi haykal-portretlardir. Portret san'atining eng gullagan davri Uyg'onish davriga to'g'ri keldi. Bu davrda oliy-yuqori yangilikning boshlanish sifatida inson shaxsining ulug'lanishi san'atdagi olamshumul boylik va qahramonlik deb sanaldi.

Ulug' italyan rassomi Titsian zamondosh shoirlar, allomalar, hukmronlarning alohida portretlarini yaratdi. Intelektual qudrati, mustaqil-ichki samimiy garmoniyasi bilan tasvirlangan uning avtoportreti energiya, jiddiylik, va jasurlik (1536 y., Drezden galereyasi, Germaniya) ifoda etiladi.

Evropa rangtasvirida birinchi planga kamer, hissiyotli portretlar yaratildi va tantanaviy va rasmiy portretlar bilan qarama-qarshi qo'yildi, bunda tasvirlanuvchini ulug'lash va ko'kka ko'tarish maqsadi ilgari surildi. Genial golland rassomi Rembrandt «Qariya kampir portreti»da (1654 y.) oddiy bir inson qiyofasi orqali insoniylik mehru-sahovatining ulug' boylikligini ko'rsatib beradi. Rembrandt o'zining boshqa guruh portretlarida turli insoniy xususiyatlar, temperament va hissiyotlarning keng va rang-barang gammasini aynan, «Sukon sexining ulug'lari» yoki «Sindiklar» (1662 y., Reyksmyuseum, Amsterdam) asarida ifoda etadi.

Leonardo da Vinchining ijodi davomida portret janriga alohida e'tibor berdi. Guruhli portretlarda o'z davrini mukammal korsatib bera olgan. Leonardo da Vinchining grafik uslubda chizilgan avtoportreti uning, falsafiy dunyoqarashini ifodalaydi. Chuqur o'yga tolgan holatda Da Vinchi o'zining keksa holatini

tasvirlagan. Bu asar klassisizm davrining yorqin na'munasi hisoblanadi. Klassitsizm rivoji impressionizmga yo'l ochdi.⁹

Impressionizm (fr. *impressionnisme*, *impression* — tanqid) — XIX asrning uchinchi yarmida va XX asrda o'z yo'nalishiga ega bo'ldi. Fransiya Salon rassomlari bu davrga kelib sekinlik bilan tabiatga, real borliq qurshoviga chiqa boshladilar. Ular rangtasvir san'atida “tanqidchi rassomlar” ya'ni “impressionistlar” deb nomlanadi. Impressionistlar san'atning boshqa turlari adabiyot, musiqa olamida ham o'zlarining tabiatdan olgan metodlarini qo'lladi. Keyinchalik guruxli ko'rgazmalar tashkil qilindi. Yirik nomoyondalaridan biri Klod Monedir. U “*impressionnisme*” so'zini kelib chiqishida muhim o'rin egallaydi.¹⁰

Ispan milliy xarakterining eng yuqori belgilari – kamtarona iroda, shaxsiy fazilatlarni his qilish kabilarni boshqa bir rassom Velaskes tomonidan mohirona tasvirlanadi. Mashhur portretlar esa ayollar haqida qo'shiqlardir.

1.2. O'zbekiston tasviriy sa'atining rivojlanishi

1990 – yillar milliy tasviriy san'atida yangi davr boshlandi. Boy tarixiy xotirasi, ma'naviy meros bilan haqli ravishda g'ururlanishi xalqning o'zligini teran anglashga olib keldi. Har bir millat madaniy merosi, shuningdek uning o'tmish san'atiga xos betakror xususiyatlarning e'tirof etilishi ana shu xalqning o'zligini anglash jarayonida ahamiyati beqiyos hisoblanadi. San'atda bu davrda qator o'zgarishlar yuz berdi. Ijodiy erkinlik va hurfiylik natijalari o'laroq, mazkur yangilanish davrida badiiy jarayonida ham butunlay o'zgacha qarashlar vujudga keldi.¹¹

Mustaqillik shart-sharoitlarida milliy o'zlikni anglashlikning uyg'onishi bilan rangtasvirda ijodiy erkinlik faollashdi, shuning bilan turli xil an'anaviy va yangilangan badiiy g'oyalar talqini ham avj oldi.¹²

XX asr san'ati izlanishlarning turli-tumanligi va yo'nalishlarning haddan ziyodaligi bilan izohlanadi. Hozirgi sharoitda mafkura hukmronligi bartaraf etilib,

⁹ Muminov O. "Rangtasvir" Sharq. T.: 2007 y.

¹⁰ Maxmudov T. “XX asr san'atida realizm” – San'at, 1999/1-son.

¹¹ Xakimov A. rahbarligida "O'zbekiston san'ati 1991 - 2001 y.y." Sharq. T.: 2001 y.

¹² Oyidinov N. "Uzbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Uqit. 1997 y.

rassom ijodiy jarayoniga putur etkazuvchi, buzib qo'yuvchi qo'rquvdan holi bo'lgach, sotsialistik uslubiyat ham bartaraf topdi. Ayni vaqtda rassomlarimiz boshqacha shart-sharoitlarda ishlamoqda. Ular nihoyat belgilab berilgan dastur, falsafiy va cheklangan estetik ko'rsatmalardan xoli va mustaqil ijod erkinligiga erishdilar.¹³

O'zbekiston ilk shakllanayotgan paytda rangtasvirda realizm asosiy baza bo'lib shakllandi. Shaxsiy ishlash metodiga ega bo'lgan rassomlar uni o'z ijodi bilan to'ldirib kelgan. Mustaqillik yillarida realistik yo'nalish keksa va o'rta avlod rassomlarining sermahsul ijodida namoyon bo'ldi.

R.Ahmedov, N.Qo'ziboev, M.Nabiev, R.Choriev, B.Boboev, S.Abdullaev, A.Ikromjonov, S.Raxmetov, M.Nuritdinov, E.Masharipov, A.Aliqulov, Z.Zufarov va yana boshqa rassomlar asarlarida bu yo'nalish uchun an'anaviy bo'lgan – tarixiy va janrli kartinalar, portret, manzara va natyurmort o'z ifodasini topadi.¹⁴

1990-yillar boshlarida o'z an'analari qatlamlarini ochish – qadimiy bo'rtmalar, falsafiy – diniy ta'limotlar, so'fiylar ezoterik bilimlari, qadim madaniy marosimlarning ilk chashmalari va afsonaviy shoirona merosning etnomadaniy tadqiq etish asosida olib borildi. Rassomlar ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Yangi plastik yo'g'rilishlarda jo qilingan hayoliy ertagu-dostonlar, timsollar, syujetlar, turli xil rasm-rusm va marosimlar bilan bog'liq belgilab beriladi. San'atning mantiq va vazifasini tushunib etish avvalgidan butunlay bo'lak, ya'ni, Sharqning an'anaviy she'riyatiga xos qamda falsafiy-diniy fikrlash bilan kechdi. Bizning cheksiz ma'naviy va madaniy salohiyatlarimiz – XX asrda o'z imkoniyatlari bilan yashayotgan va uning kelajagini belgilayotgan: zamonaviy falsaviy, estetik izlanishlar qatlamiga kirishga imkon beradi. Shunday qilib, zamonaviy badiiy jarayonning umumiy xususiyat va yo'nalishlari, ziddiyat va qiyinchiliklarini sharxlash bilan, O'zbekiston san'ati aynan XX asr bo'sag'asida o'z-o'zini anglash davrini boshdan kechirayotganligini ta'kidlashimiz lozim.¹⁵ Sharq poeziyasida badiiy mukammallikka erishish taomili taxminan tasviriy san'atdagi kabidir, boshqacha

¹³ Abdullaev N.U. "Uzbekiston san'ati tarixi" Uz.f.m.j. T.: 2007 y.

¹⁴ Ne'mat Abdullayev. San'at tarixi. 2/1, 173 -175 b

¹⁵ Maxmudov T. "XX asr san'atida realizm" – San'at, 1999/1-son. San'at журнаלי 1999 й.

aytganda, shoirning ichki ijodiy qoyasi matnda aks etadi, undagi qofiya va radiflar tasviriy san'atdagi rang gradatsiyalari, musiqadagi notalar vazifalarni bajaradi.¹⁶

O'tgan asrning 1990-yillari muhim davr bo'lib qoldi. Bu davrda rassomlar jiddiy izlanishlar qildilar. O'zbekiston musavvirlari asarlaridagi xususiy plastik taomillar, yorqin ko'zga tashlanadi, ularning barchasida dunyoqarashning sharqqa xos bo'lgan unsurlari ko'zga tashlanadi. S.Alibekov, Sh.Abdullaeva, F.Ahmadaliev, X.Ziyoxonov, L.Ibragimov, A.isaev, M.Isanov, B.Ismoilov, T.Karimov, B.Mahkamov, A.Nur, A.Rixsitullaev, J.Usmonov, Q.Qodirov, Sh.Hakimov kabi rassomlar Sharq falsafasi va nazmining umumiy qoyalariga tayanib plastik obrazlarning yangi dunyosini yaratdilar.

Hamisha ham dunyoning g'ayri tabiiy siru asrorlariga, insonni lol qoldirish mumkin bo'lgan ilohiy nur mavjudligi, uning g'oyibdan taralib turishiga ishonavermaymiz. Akmal Nur ijodining o'ziga xosligi ham, favquloddaligi ham ana shunda: bu musavvir real borliqni, unda kechayotgan voqea-hodisalarni ilohiy nurdek g'aybiy borliq, xilqat bilan mushtarak idrok etadi, tasvirleydiki, natijada teran, yangicha falsafiy talqinlar hosil bo'ladi. Bu suratlardagi yorug'lik va soya o'yinlariga chuqurroq razm solinsa, ular nur bilan yo'g'rilgandek, ranglardan esa ajib harorat taralayotgandek tuyuladi.¹⁷

1990-yillar milliy tasviriy san'atida yangi davr boshlandi. Boy tarixiy xotirasi, ma'naviy meros bilan haqli ravishda g'ururlanishi xalqning o'zligini teran anglashga olib keldi. Har bir millat madaniy merosi, shuningdek uning o'tmish san'atiga xos betakror xususiyatlarning e'tirof etilishi ana shu xalqning o'zligini anglash jarayonida ahamiyati beqiyos hisoblanadi. San'atda bu davrda qator o'zgarishlar yuz berdi. Ijodiy erkinlik va hurfiylik natijalari o'laroq, mazkur yangilanish davrida badiiy jarayonida ham butunlay o'zgacha qarashlar vujudga keldi. Ma'lum bo'lishicha, ilgari san'atda mustabid Sho'rolar tuzumiga bog'liq bo'lgan mafkuraviy qarashlar mavjud edi.¹⁸ Ijodda chegaralar, qandaydir to'siqlar, kommunistik ideologiya bor edi. 90-yillarga kelib, ijodda o'zini erkin namoyon qilish boshlandi. Sobiq ittifoqning barcha

¹⁶ <http://www.uzvip.uz/>

¹⁷ O'zbekiston badiiy akademiyasi rassomlari.

¹⁸ Ne'mat Abdullayev. San'at tarixi. 2/1, 173 -175 b

respublikalarida mustaqillik va ijodiy erkinlikka erishilganidan keyin demokratiya va hurfiylikning uzoq kutilgan mevasi sifatida turfa xil san'at turlari beqiyos rivojlanmoqda. Turli yo'nalishlar rivojida o'z ifodasiga ega bo'ldi. San'atda milliy merosni qayta ko'rib chiqish muammolari kunning asosiy masalasi sifatida birlamchi ahamiyat kasb eta boshladi. Milliy-mafkuraviy, shuningdek, etnomadaniy g'oyalar bilan chambarchas bog'liq tarzda kechishi an'anaviy qadriyatlarga yana qaytadan murojaat etishni taqozo qilib qo'ydi. Mazkur davrda O'zbekiston tarixiy-madaniyat rivojlanishining qonuniy bosqichlarini o'z boshidan kechirdi. Bunday jarayon ko'pgina mamlakatlar mustaqilligini qo'lga kiritilgandan keyin paydo bo'ladigan jarayonlardandir.¹⁹

Yangi ma'naviy makonning shakllanishi bilan mintaqa xalqlarning o'z-o'zini anglash qoyasi muhim o'rin egallab, ularning milliy o'zaklari qaytadan tug'ila boshladi. Qadimgi meros – zamonaviy san'atda sharqlanmoqda. Milliy meros aktual san'atga javob bermoqda. Milliy merosning qatlamlari aktual san'atda ma'naviyat, ma'rifatda ochib berilmoqda. San'atda yangi ruh va talqin, singdirishning uslubiy yondashuvlari paydo bo'lmoqda. Zamonaviy O'zbekiston san'atining o'ziga xosligi: yangi zamonaviy kontseptual va plastik qoyalar paydo bo'la boshlandi. N. Ahmedova yozishicha: kardinal o'zgarishlar yangi shakllar paydo bo'lishi texnologiya va zamonaviy san'atda instalyatsiya, perfomans, aktsiya, ob'ekt, videoart, 1990-yillar oxirida esa – multimedia-art, an'avaiy san'at turini shakllantirib berdi.²⁰ Mustaqillik shart-sharoitlarida milliy o'zini anglashlikning uyg'onishi bilan rangtasvirda ijodiy erkinlik faollashdi, shuning bilan turli xil an'anaviy va yangilangan badiiy g'oyalar talqini ham avj oldi. "1990-yillar boshlarida O'zbekiston zamonaviy badiiy dunyoga kira boshladi, uning san'ati yorqin va original bo'lsa-da, lekin ko'p jihatdan tushunarsiz fenomendir. Uning xususiyatlari o'ziga xosligi taajjub emas, ba'zan esa u kutilmagan kashfiyotlar qilgan holda an'anaviylikning zamonaviy mushohadalar bilan g'aroyib tarzda uyg'unlashib ketishi bilan xayratlantiradi. Shubxasiz, uning XX asrdagi tarixiy-madaniy yuksalishlarini – bunday o'ziga xoslik manbalari nimada

¹⁹ Ne'mat Abdullayev. San'at tarixi. 2/1, 173 -175 b

²⁰ Mualliflar jamoasi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. T.: 2006 y.

ekanligini, shuningdek, oxirgi 17 yildagi san'atning qiyin vaziyatlarni bilmasdan turib shunchaki tushunib bo'lmaydi. O'tgan davrning qaqshatqich tarixiy va siyosiy bosqichlari, uning madaniyatini nobud bo'lishi va zarbaga uchrashiga olib keldi, oqibatda o'z ildizi va an'analarni yo'qotdi".

Mustaqillikning ruhi hamda nafasini juda yaxshi sezgan rassomlar o'ziga xos ranglar, ijodiy echimlar bilan yangi muhitni aks ettirib, yangi ijtimoiy voqealikka munosabatlarini o'ziga xos ifodaladilar. Shu sababdan rangtasvirda badiiy jarayon birmuncha shiddatli va serharakat kechdi. Rassomlar kommunistik idealogiyadan voz kechdi, umuminsoniy qadriyatlar ularning ijodida ustunlik kasb eta boshladi. Milliy merosga bo'lgan qiziqish kuchayib, uni qayta tiklash jarayoni tezlashdi.

1990-yilda rangtasvir mutlaqo boshqa kontekstda, tarixiy-madaniy o'zgarishlar ro'y bergan muhitda, plyuralizm vaziyatida rivojlandi. Yangi tendentsiyalar, mustaqillik haykaltaroshlik va grafikaga nisbatan aynan rangtasvirda kuchliroq namoyon bo'ladi.²¹ An'anaviy estetik qonuniyatlar asosida milliy qahramonlarni qayta ko'rib chiqish jarayoni mazkur bosqichini boshidan kechirayotgan biror bir mintaqani cheklab o'tmadi. Milliy-ma'naviy an'analar she'riyat, falsafa, tarix va adabiyotda qayta ko'rib chiqilmoqda. Merosda zamonaviylik aloqalarni qidirilmoqda, ya'ni o'tmish bilan zamonaviylikning o'zaro aloqadorligini ilmiy jihatdan izlanilmokda. San'atda etnomadaniy jihatlarning o'xshashligi qidirilmoqda.²² 17-yillikda o'zbek tasviriy san'atida boshqa san'at turlariga nisbatan millat tarixining muhim davrlari yorqin gavdalantirila boshlandi. Keyingi paytlarda dastgohli rangtasvir rassomlarning izlanishlari natijasida milliy meros qayta jonlandi.

San'atga avvalgidek yagona uslubiy, gnoseologik yondashish endilikda o'z natijalarini bermayapti. Biroq, izlanishlar zamonaviy san'atning yangi shakllarini o'zlashtirish borasida emas, balki o'z-o'zini anglashda va rangdagi hoyalar atrofida ham yuz bermoqda. 1990-yillarda o'zbek rangtasviri fikran birikkan – ma'joziy, kartinalar turini idrok etishga ko'ra esa zalvorli-ishoraviy tarzda shakllandi.²³

²¹ Abdullaev N.U. "Uzbekiston san'ati tarixi" Uz.f.m.j. T.: 2007 y.

²² Oydinov N. "Uzbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Uqit. 1997 y.

²³ Mualliflar jamoasi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. T.: 2006 y.

“O‘zbekistonda etnomadaniy, falsafiy an‘analarning ta‘sir doirasi, uning o‘ziga xoslik kuchi shunchalar qudratliki, u rassomlarni yangi tartibdagi avangard kengliklariga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki ulardan tiyilishga undaydi. Sharq san‘atida bir qancha qonuniyatlar, fikr almashinish tartiblari, ko‘rinishlarni turlicha tasvir etish imkoniyatlari va bu an‘analarning asl mohiyatini ko‘rsatib beruvchi uslubiyat mavjudki, unda g‘oyalarni doimiy sharqlab va izohlab beruvchi ma‘lum "belgi"li tizim asosiy hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy san‘atda yangicha plastik g‘oyalar mohiyati ochilmasdan qoladi, shu bois ijodiy yangilanishlar kuchiga ega emas, bu aslan olganda rakalizm g‘oyasi tabiatiga xos emas. Ustalarda ichki bir ong bilan o‘zini erkin rassom deb his etmaslik, shuningdek, Kandinskiy "ichki ehtiyoj" deb atagan izlanish etishmaydi.²⁴

Bunga o‘ziga xos ongga oid xususiyat – nigilizm an‘analarining yo‘qligi, qadriyatlarni ortiq baholashni qo‘shimcha qilishimiz mumkin. Shu bilan bog‘liq holda avangard ham ijodiy mohiyat sifatida o‘zbek rangtasvirida rivojlana olmadi, negaki u ham o‘zining ijodiy erkinligini namoyish etishda radikalizm (keskin islohlarni amalga oshirish)ga intiladi, noma‘lum tomonlarga intilishlarni talab etadi”.²⁵

O‘zbek rassomlari an‘anaviy madaniyatning o‘ziga xos ramz va belgilardan XX asr modernizm plastik g‘oyalari bilan munozaralashib turib foydalandilar. Natijada mavzular va plastika o‘zgacha shakllandi.

O‘zbekistonning milliy san‘ati jahon, Evropa va sobiq sovet hududidagi respublikalar san‘ati orasida mahalliy ham, avangard ham bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. 1990-yillar rassomlari badiiy yo‘nalishda to‘ntarish yasaydigan harakatlarga kirishmadilar, ularning kiritgan yangiliklari "sokin inqilob" tusini kasb etdi. Bu esa ko‘p jihatdan boy tarixiy-badiiy meros bilan bog‘liq bo‘lib, u ma‘lum bir ma‘noda zamonaviy rangtasvirchilarning ilg‘or tashabbuskor qarashlarini cheklab turadi.²⁶

XX asrning 1990-yillar rangtasvirining yo‘nalishlari va oqimlari orasidagi sarhad shartli xususiyatlarga ega. Turli oqimlar xamnafas bo‘lib rivojlandi. Ular

²⁴ Oydinoy N. "O‘zbekiston tasviriy san‘atidan lavhalar" Uqit. 1997 y.

²⁵ Qo‘ziyev T. "O‘zbekiston zamonaviy san‘ati" O‘z.B.A. T.: 2004 y

²⁶ G‘o‘ziyev T. "O‘zbekiston zamonaviy san‘ati" O‘z.B.A. T.: 2004 y

realistik, shartli-dekorativizm, miniatyuraning interpretatsiyasi, installyatsiya yoki nonfigurativ rangtasvir abstraksionizmlarga ajratiladi. O'zbekiston rassomlari bugungi kunda tarixiy xotiralarni tiklash, o'z badiiy merosini qayta mushohada qilish bilan birga jahon badiiy madaniyatining eng so'nggi yutuqlarini o'zlashtirmoqda.²⁷

O'zbekiston ilk shakllanayotgan paytda rangtavirda realizm asosiy baza bo'lib shakllandi. Shaxsiy ishlash metodiga ega bo'lgan klassik rassomlar uni o'z ijodi bilan to'ldirib kelgan. Mustaqillik yillarida realistik yo'nalish keksa va o'rta avlod rassomlarining sermahsul ijodida namoyon bo'ladi. R.Ahmedov, N.Qo'ziboev, M.Nabiev, R.Choriev, B.Boboev, S.Abdullaev, A.Ikromjonov, S.Raxmetov, M.Nuritdinov, E.Masharipov, O.Muinov, Z.Sharipova, A. Aliqulov, Z.Zufarov va yana boshqa rassomlar asarlarida bu yo'nalish uchun an'anaviy bo'lgan – tarixiy va janrli kartinalar, portret, manzara va natyurmort o'z ifodasini topadi.²⁸ Realistik yo'nalish taraqqiyotida, ayniqsa, 1990 yillarda tarixiy janr ustun kela boshladi. Negaki bu davrda yangi mafkura paydo bo'lgach, barcha san'at turlarida aynan tarixiy janrga bo'lgan yangicha qiziqish kuzatiladi, ya'ni milliy qahramonlarni ifodalash keng tus oldi. Masalan, Amir Temurning qator portretlari, Jaloliddin Manguberdi jasoratini aks ettirish, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburning ulug'vor siymosini yaratish kabi mavzular ham realistik tendentsiya taraqqiyotida salmoqli o'ringa ega bo'ldi. Bu esa M.Nabievning "Amir Temur portreti", S.Abdullaevning "Samarqand bilan vidolashuv", "Temur Bibixonim masjidi qurilishida", J.Umarbekovning "Etti iqlim sultoni", "Zahiriddin Muhammad Bobur" asarlarida, Orif Muinov "To'maris", "Roksana", E.Masharipovning "Jaloliddin Manguberdi", A.Ikromjonovning "Ulug'bek portreti"da, A.Aliqulovning "Buyuk daholar", "Vatan uchun", "Qal'aning olinishi" asarlarida o'zining yorqin ifodasini topdi.

Ilmiy izlanishlar natijalari shuni belgilaydiki, 1990-yillar boshida realistik yo'nalish yangi tendentsiyalar bilan parallel ravishda rivojlanib kelmoqda. Ammo 1990-yillar o'rtalariga kelib bu ikkala yo'nalish o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning dinamikasi keskin o'zgardi. Musavvirlar, go'yoki, madaniy meros qoyalarini ijodiy

²⁷ Mamudov T. Olimov Ya. "O'zbekiston san'atida inson omili" T.: 1988 y.

²⁸ Xakimov A. rahbarligida "O'zbekiston san'ati 1991 - 2001 y.y." Sharq. T.: 2001 y.

yuksaltirish da'vatiga quloq tutgandek yuqori professional darajadagi tajriba asosida realistik metodlarga yana murojaat etmoqda.²⁹

1990-yillar boshlarida o'z an'analari qatlamlarini ochish – qadimiy bo'rtmalar, falsafiy-diniy ta'limotlar, so'fiylar ezoterik bilimlari, qadim madaniy marosimlarning ilk chashmalari va afsonaviy shoirona merosning etnomadaniy tadqiq etish asosida olib borildi. Rassomlar ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Yangi plastik yo'g'rilishlarda jo qilingan xayoliy ertagu dostonlar, xalq og'zaki ijodi va matallardagi timsollar, syujetlar, turli xil rasm-rusm va marosimlar bilan bog'liq belgilab beriladi. San'atning mantiq va vazifasini tushunib etish avvalgidan butunlay bo'lak, ya'ni, Sharqning an'anaviy she'riyatiga xos hamda falsafiy-diniy fikrlash bilan kechdi.³⁰

Bizning cheksiz ma'naviy va madaniy salohiyatlarimiz – XX asrda o'z imkoniyatlari bilan yashayotgan va uning kelajagini belgilayotgan: zamonaviy falsafiy, estetik izlanishlar qatlamiga kirishga imkon beradi. Shunday qilib, zamonaviy badiiy jarayonning umumiy xususiyat va yo'nalishlari, ziddiyat va qiyinchiliklarini sharqlash bilan, O'zbekiston san'ati aynan XX asr bo'sag'asida o'z-o'zini anglash davrini boshdan kechirayotganligini ta'kidlashimiz lozim bo'ladi. Sharq poeziyasida badiiy mukammallikka erishish taomili taxminan tasviriy san'atdagi kabidir, boshqacha aytganda, shoirning ichki ijodiy g'oyasi matnda aks etadi, undagi qofiya va radiflar tasviriy san'atdagi rang gradatsiyalari, musiqadagi notalar vazifalarni bajaradi. O'tgan asrning 1990-yillari muhim davr bo'lib qoldi. Bu davrda rassomlar jiddiy izlanishlar qildilar. O'zbekiston musavvirlari asarlaridagi xususiy plastik taomillar, yorqin ko'zga tashlanadi, ularning barchasida dunyoqarashning sharqqa xos bo'lgan unsurlari ko'zga tashlanadi.³¹ C.Alibekov, Sh.Abdullaeva, F.Ahmadaliyev, X.Ziyoxonov, L. Ibragimov, A.Isaev, M.Isanov, B.Ismoilov, T.Karimov, B.Mahkamov, A.Nur, A.Rihsitullaev, J.Usmonov, Q.Qodirov, Sh.Hakimov, kabi rassomlar Sharq falsafasi va nazmining umumiy g'oyalariga tayanib plastik obrazlarning yangi dunyosini yaratdilar. Ular ranglar

²⁹ Mualliflar jamoasi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. T.: 2006 y.

³⁰ Oydinov N. "O'zbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Uqit. 1997 y.

³¹ Abdullaev N.U. "Uzbekiston san'ati tarixi" Uz.f.m.j. T.: 2007 y.

jilosining ma'nodorligiga va bo'yoqlar mutanosibligiga alohida e'tibor beradilar. Ularni ichki hissiy intilishlar, shuningdek, asrlar davomida shakllangan milliy an'analarga murojaat etib, ish ko'rish birlashtirib turadi. Ular birinchilardan bo'lib yangi badiiy g'oyalarni idrok eta boshladilar. Bu yangi g'oyalarni jamiyatda paydo bo'lgan turli ma'naviy va falsafiy qarashlarning manbai sanalgan etnomadaniy meros bilan bog'ladilar.³² Murakkab o'tish davrida rassomlar ijodi ravnaq topishi uchun ayni shu omil asos bo'ldi. Ularning asarlaridagi g'oyalar etnomadaniy an'analarda jamlangan madaniy va ma'naviy qadriyatlar yaxlit ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Rassomlarning o'sha davrdagi izlanishlarida ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati ayniqsa katta bo'ldi.³³

Bugungi kunda milliy o'ziga xoslikni izlash O'zbekiston rangtasvirida turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. Respublika musavvirlarida tarixga, o'rta asrlar sharq miniatyurasiga she'riyatiga e'tibor, xalq amaliy va bezak san'atining ramziy jihatlariga yondashish avj oldi. Lekin biz bezakdorlik jihatdan maromiga etkazib ishlangan an'anaviy qiyofalarni yoki etnografik tasniflangan polotnolarni kamdan-kam uchratamiz.

XX asrning 1990-yillardagi O'zbekiston rangtasvirida ro'y bergan ramziy-metaforik tendentsiyalar – aytish joizki, nazmiyot (poetika) va (ikonografiya) ilohiy ramzlar va siymolar saviyasi umumiy xususiyatlarga egadir. Rassomlar ijodida turli xil alfozlar va ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Ularning aksariyatining ijodiga XX asrning Evropa san'atining turfa xil yo'nalish va oqimlarning ajoyib uyg'unligi xos edi. Mazkur yo'nalish va oqimlar shaxsiy madaniy madaniyatlar qatlami va betakror milliy mentalitet o'ziga xos xususiyatlar orasidan sizib chiqdi. Buning barchasi 1990-yillardagi o'zbek rangtasviri o'z boshidan kechirgan va yangi yo'llar va yangi badiiy kontseptsionalarni topish, qidirish va izlashga bo'lgan o'ta dolzarb va ahamiyatli ehtiyojni anglash bilan bog'liq bo'lgan umumiy jarayonga singdiriladi.³⁴ Ma'naviy merosni o'zlashtirish, etnomadaniy va falsafiy an'analarning zamonaviy, aksar hollarda, avangard kontseptsionalar orasidan "o'sib-unish" jarayonidan o'tib u ozodlik

³² Mualliflar jamoasi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti. T.: 2006 y.

³³ <http://www.uzvip.uz/>

³⁴ <http://www.catsparella.com;>

va qurlik ruhini va qirralarini kasb eta boshladi. Asta-sekin ijodiy tajriba va amaliyotda yangi tafakkurning qirralari namoyon bo'lishni boshladi. Mazkur yangi tafakkur o'zining sobiq tajribasiga ko'ra, umuman olganda yangi va alternativ edi. Ushbu jarayonlar kelib chiqishi har xil bo'lgan ikkita mustaqil tendentsiyalar (harakatlarning) antiqa birlashuvi fonida (negizida) ro'y berdi. Bir tomondan O'zbekistonda madaniy jihatdan o'z-o'zligini anglash hal qilish tanlovi oldida turgan mamlakatlarga xos o'z o'tmishiga murojaat qilish, madaniy ma'naviy xotirani dolzarblashtirib, uni bugungi kunda tiklash kuzatilgan bo'lsa, ikki tomondan - O'zbekiston san'atining postmodernizm bilan bog'liq bo'lgan umummadaniy jarayonga asta-sekin qo'shilishdir.

Postmodernizm, madaniy hodisa sifatida, ilk bor me'morchilikda paydo bo'lib, uni dastlab frantsuz faylasufi J-F. Liotar, amerikalik olim F. Djeymison tadqiq etgan bo'lib, shuningdek, rus mualliflari – I.Ilin va T.Kaluginaning ishlarida yoritiladi.³⁵

F.Djeymison yondashuvini mintaqaviy san'atga bo'lgan ekstrapolirovaniya qilish (yaxlit umumlashtirish) nazariy jihatdan ancha dolzarb deb taxmin qilishimiz mumkin va ilk bor postmodernistik tuzilmalar rivojining o'ziga xosligida ko'rib chiqishimiz hamda O'zbekiston mazmunida ularning asta-sekin moslashuvini ham ko'zdan kechirish mumkin. O'zbekistonning umumiy tipologik o'ziga xoslik xususiyatlari - "yangi" qabul qilingan ma'lumotni o'zining falsafiy va etnomadaniy asos zaminida vujudga kelgan tizimlarga o'tkaza olish qobiliyati va mahorati – postmodernizm bo'yicha ham belgilab olinadi.

O'zbekiston san'ati rivojlanishiga Sharq va G'arb orasidagi estetik muloqoti XX asrda muntazam ravishda olib borilayotgan estetik muloqot katta ta'sir ko'rsatadi. Installyatsiya, envayroment, perfomanslarni egallab olinganidan so'ng, rassomlar oldida bu muloqotning yangi yo'nalishlarini qidirish kerakligi paydo bo'ldi. Bu muloqot asosida madaniy strukturalar, rassomlarni noyob g'oyalarini umumlashtirish yotadi.

Postmodernizm murakkab, ko'p turli eklektik jarayondir. U XX asrning to'rtinchi choragida G'arbiy Evropa madaniyatida shakllandi. Postmodernizmning

³⁵ www.arxiv.uz

birinchi g'oyalari 1960-yillarning oxirlarida dolzarblashib bordi, hozirgi sivilizatsiyaning ijtimoiy, madaniy va falsafiy asosiga tanqidiy refleksiya sifatida namoyon bo'ldi.³⁶

Zamonaviy rassomlarimizning ijodiy izlanishlari va ularning o'ziga xos dunyoqarashi talqini endilikda birgina tarixiy-madaniy doiraga sig'may qoldi. Ularni keng makon va ijodga ta'sir etuvchi o'zga madaniyatlarning rang-barangligi, ko'pqirrali badiiy jihatlarni ochish g'oyasi o'ziga tortmoqda.

Shu ma'noda 2001-2003-2005-2007-2009-2011 (I, II, III, IV, V, VI) yillari O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tomonidan Toshkent Xalqaro badiiy ko'rgazmasi "Biennale"lar tashkil etildi. Ushbu ko'rgazmalar yuksak ijodiy mahoratinigina emas, balki yurtimiz madaniyatida namoyon bo'layotgan ijodiy erkinlikni ham namoyish etdi.

G'arb va Sharq madaniyati o'zaro ta'siri tufayli paydo bo'layotgan yangicha yo'nalishga intilayotgani tufayli xalqaro san'at maydonida O'zbekiston san'atining mavqei oshmoqda. S.Alibekov, F.Ahmadaliev, B.Jalol, L.Ibragimov, A.Nikolaev, A.Nur, V.Oxunov, J.Usmonov, V.Useinov, Q.Qodirov, kabi o'zbek rassomlarining asarlarida shu xususiyatlar seziladi.³⁷

Rassomlarimiz ijodida namoyon bo'layotgan postmodern o'yin holati, siyosatga yo'nalganlik, istehzo, taklif etish, texnik yangiliklarga intilish kabi xususiyatlarga ega. Rassomlarimizning postmodern asarlarida etnomadaniy tasavvurlar va an'analarni dolzarb san'at janrlariga mos tarzda talqin etishga intilish sezildi.³⁸

Bunday yirik xalqaro ko'rgazmalarni o'tkazishdan maqsad Toshkentda zamonaviy san'at tamoyillarini ko'rsatishdir. Chunki O'zbekiston rassomlari ijodida ham zamonaviy san'at tamoyillari mavjud. Ular yangi texnologiyalarga yangicha shakllarga asoslangan. Videosan'at ishlari ham mazkur biennaleda ilk bor namoyish etildi. Bu o'ziga xos yangilikdir. Videoart, mohiyatiga ko'ra, o'ziga xos san'atdir. Rassomlar avvallari san'at sohasida qo'llanmagan vositalarni erkin, bemalol qo'llab, tajriba asosida ijod qilmoqdalar. Sharq mamlakatlaridagi va mintaqamizdagi ko'pgina

³⁶ <http://arteluce.ru/svetovoj-dizajn-interera>;

³⁷ Xakimov A. rahbarligida "O'zbekiston san'ati 1991 - 2001 y.y." Sharq. T.: 2001 y.

³⁸ Ahmedova N. "Davr va rassom" – San'at, 2001, 3-son.

maktablar esa aksincha, ko'p asrlik madaniy shakllarga asoslangan an'analarga tayanib qolmoqda. Ular yangiliklarni ham an'analar bilan uzviy bog'liq qolda tushunadilar. Bu maktablar hozirgi davrning umuminsoniy g'oyalarini o'z uslublari asosida talqin qiladilar. Globallashish keskin tus olayotgan ayni paytda bunday yo'l tutish ham o'ziga xoslikni saqlab qolishga imkon beradi.³⁹

San'at taraqqiyotining an'anaviy va umuminsoniy tamoyillarini uyg'unlashtirish zamonaviy badiiy jarayonning dolzarb muammolaridan biridir. Bugun butun dunyoni antigloballashuv harakati qamrab olgan. har bir xalq o'z ildizi, o'z madaniyatini asrab qolishga intilmoqda. Har bir xalq o'zligini, an'alarini, san'atini saqlab qolishga intilmoqda.⁴⁰

Aktual san'at (sontemporary art) rassomlarni qiziqtirib, o'zining innovatsion ruhi bilan hamda o'zining cheksiz chegaralari o'sib borishi bilan ko'pgina mamlakatlarni egallab oldi. Tafakkur qilish, stereotiplarni buzgan holda, rassomlar hozirgi zamonaviy muammolarni, noan'anaviy shaklda, ya'ni, installyatsiyalarda, ajoyib performanslarda, intellektual video san'atda ko'rsatmoqdalar.

O'zbekiston rassomlarining loyihalari, har xil shaklda o'ziga xos g'oya va aktual san'at tilida bo'lib, zamonaviy san'atning deyarli hamma janrlari mavjud edi. M.Fozili, V.Useinov va A.Nikolaevning installyatsiyalari, S.To'chin i V.Axunov video-artlari, A.Nikolaevning kinetik ob'ektlari, F.Ahmadaliev, J.Usmonov invayroment va ob'ektlari, A.Nikolaevning aktsiyasi va redi-meydlari namoyish etilib kelinmoqda. Rassomlar har bir ishlarida nafaqat aktual san'at, balki zamonaviy universal muammolarga murojaat etishadi. O'zbekiston rassomlari zamonaviy san'atda yangi tendentsiyalarni o'ziga xos tushunishi va ifoda qilishga qodirlar. Ular murakkab shakllar yordamida yangi eksperimentni o'tkazishdi, evropa standartlariga taqlid qilmadilar, o'z tillari bilan munosabatlarini ko'rsata oladilar.⁴¹

Shubhasiz, har bir madaniyat o'z rivojlanish xususiyatiga, yangi sharoitlarga moslashish imkoniyatlariga ega. Mutaxassislar anchadan buyon ta'kidlayotganidek, O'zbekistonda yangi falsafiy va badiiy tamoyillarni egallash jarayoni boshlandi.

³⁹ <http://www.uzvip.uz/>

⁴⁰ Xakimov A. rahbarligida "O'zbekiston san'ati 1991 - 2001 y.y." Sharq. T.: 2001 y.

⁴¹ G'o'ziev T. "O'zbekiston zamonaviy san'ati" O'z.B.A. T.: 2004 y

Rassom g'oyasini to'raligicha aks ettirish, asar tilini umumlashtirish tamoyili loyiha sifatidagi asarning yangicha turini shakllantirdi. Tabiiyki, bu barcha rassomlarni an'ana va usullarning avvaldan ma'lum bo'lgan jozibadorligidan voz kechishiga olib keldi. Yangicha til muallifning asl g'oyalarini muqobil aks ettira oladigan turli madaniyatlar, ijodning andoza va ko'rinishlarini uyg'unlashtirish asosida shakllana bordi. Shu bilan birga, shakllanib ulgurgan ba'zi rassomlarda hozirgi o'zbek tasviriy san'atini umumjahon madaniyatiga uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolarni tushunish hissi paydo bo'ldi. Bu ularni o'z ijodiga ham, shuningdek, yurtimiz san'atining ko'pgina tamoyillariga ham jiddiy va tanqidiy yondashishga undadi. XX asr davomida olib borilgan G'arb va Sharq estetik muloqoti tubdan o'zgacha xususiyat kasb etdi.⁴²

XXI asr boshida O'zbekistonda postmodernizmning yangi tendentsiyalari aktual san'at aktivizatsiyalashdi, yangi texnologiyalar rivojlandi, installatsiyadan tashqari, murakkab badiiy kuratorlik loyihalar paydo bo'ldi. Bulaga har xil texnologiyalar: performans, aktsiya, ob'ekt, videoart, redi-meyd, invayroment, assamblyaj va hokazolar kiradi. Ushbu yangi texnologiyalarda ham milliy merosni, mafkurani, g'oyani, ko'rsatish amalga oshirilmoqda.

Hozirgi O'zbekiston hududida XV asrdan to XX asr boshlariga qadar qator xonliklar mavjud bo'lib, ulardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvol bir-birlaridan deyarli farq qilmasdi. Tasviriy san'atning taraqqiyotiga islom dinining nisbatan cheklovchi ta'siri ham sezilib turardi. shunga qaramasdan, ayrim ma'rifatparvar, ilg'or adabiyot va san'at namoyandalari o'ta ehtiyotkorlik bilan bo'lsada, o'zlarining ijodiy ishlari bilan shug'ullanib kelganlar. Xususan shoir, faylasuf, xattot, astronomlardan Axmad Donish, Ahmad Mahsum, Abdulxoliq Maxdum kabilar shular jumlasidandir. Ular asosan Sharq miniatyura rangtasviri yo'nalishida ijod qilib, tasviriy san'atda o'z o'rni va yo'nalishlarini topishga harakat qildilar.⁴³

XX asr boshlarida O'zbekiston tasviriy san'ati, ayniqsa, rangtasvir san'atining shakllanishida Evropaning ilg'or tasviriy san'ati an'analari, rus va boshqa xalqlar

⁴² Tahrir hay'ati "O'zbekiston san'ati" (1991-2001 y). – T.: SHarq, 2001y.

⁴³ Ahmedova N. "Davr va rassom" – San'at, 2001, 3-son.

rassomlarining ta'siri katta edi. Evropa davlatlarida ancha ilg'orlab ketgan uch o'lchamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan tasviriyl san'at aynan o'sha davrlarda bizning o'lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san'atga ixlosmand vakillari ko'proq xalq amaliyl bezak san'ati bilan mashg'ul bo'lganlar.⁴⁴

XX asrning 20—30-yillariga kelib O'zbekiston tasviriyl san'ati o'ziga xos shakl-shamoyiliga ega bo'la boshladi. Bunda A.Volkov, P.Kuznetsov, M.Kurzin, S.Finkelshteyn, N.Karaxan, V.Ufimsev, Usta Mo'min (A.Nikolaev), N.Kashina, O.Tatevosyan, P.Benkov, S.Kovalevskaya, I.Ikromov, O'.Tansiqboev, Ch.Ahmarov, L.Abdullaev kabi mo'yqalam ustalarining ijodiy namunalari e'tiborga molik bo'ldi.⁴⁵

Toshkentda 1919-yilda o'lka badiiy maktabi — Turkiston xalq maktabi tashkil qilindi. Unda S. Yudin, I. Kazakov, A. Isupov, I. Golovin, A.Volkov va boshqa rassomlar o'qituvchilik qildilar. 1921-yilda maktab tarqatildi; 1921—1923-yillarda Toshkentda badiiy texnikum ishlab turdi. 1918—1920 yillarda Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko'plab mahalliy yoshlar jalb etiddi. Revolyutsiyadan keyingi dastlabki yillarda rus va boshqa millat rassomlari aktivlik ko'rsatdilar. Ular yosh milliy kadrlarni tarbiyalash, xalq orasida san'atni targ'ib etishda faollik ko'rsatdilar. Shu bilan birga o'zbek xalq san'atini o'rganish orqali haqiqiy milliy san'at namunasini yaratishga, o'z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo'ldi. Mashhur rus rassomi V.Korovinning shogirdi bo'lgan bu rassom 1915 yili birinchi bor O'zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiati, boy me'morlik yodgorliklari yosh rassomni o'ziga maxliyo etdi. O'zbekistonda o'z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o'qishni bitirgach, butunlay O'zbekistonga ko'chib keldi va o'zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning inqilobgacha bo'lgan davrdagi ijodi asosan Samarqandga bag'ishlangan.⁴⁶ Gavjum ko'chalar, noz-ne'matga to'lib toshgan bozor ko'rinishlari, choyxonalar rassomning ko'pgina asarlarining mazmunini tashkil etdi.⁴⁷

⁴⁴ <http://eduportal.uz/jahon.tarixi.8/band/9-10.htm>

⁴⁵ www.arxiv.uz

⁴⁶ Xakimov A. rahbarligida "O'zbekiston san'ati 1991 - 2001 y.y." Sharq. T.: 2001 y.

⁴⁷ Ahmedova N. "Davr va rassom" — San'at, 2001, 3-son.

XX asrning birinchi choragida tasviriy san'atning dastgohli rangtasvir, grafika turlarining rivoji bevosita Toshkentlik, Samarqandlik va Buxorolik rus millatiga mansub rassomlar ijodi bilan bog'langan. Ular Rossiyadan Toshkentga ko'chib kelgan I.Kazakov, V.Razvodovskiy, P.Nikifirov, shuningdek, Samarqandlik L.Bure, farg'onalik A.Volkovlar edilar. Bu rassomlarning harakati bilan 1915 yilda Toshkent o'lkashunoslik muzeyida "Nafis san'at va hunarmandchilik san'ati jamiyati" ishtirokida badiiy ko'rgazma tashkil etildi.⁴⁸ Unda I.Kazakov, S.Yudin, L.Bure, R.Zommer, V.Razvodovskiylar o'zlarining ijodiy ishlari bilan katnashdilar.

1934 yilga kelib, birinchi bor Moskvada O'zbekistonlik rassomlarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Unda yosh rassomlardan O'.Tansiqboev, N.Karaxan, A.Volkov, Usto Mo'min, P.Benkov, Ch.Ahmarov, B.Hamdamiy, L.Abdullaev, ASiddiqiylarning asarlari namoyish etildi. Shu yili O'.Tansiqboev, A.Volkov, P.Benkov, N.Karaxan, P.Shcheglovlarning asarlari Filadelfiyada bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazmaga yuborildi. 1938 yilda O'zbekistoi rassomlarining birinchi qurul toyi o'tkazilib, unda O'zbekistoi rassomlar uyushmasi tashkil etilganligi e'lon qilindi. O'tgan asrning 1940 yillariga kelib ijodkorlar qatoriga V.Kaydalov, A.Abdullaev, R.Temurov, A.Roziqov kabi yosh, iqtidorli rassomlar kelib qo'shildilar.

Bu davrda yaratilgan asarlar orasida V.Kaydalovning "Yo'lbars bilan uchrashuv" nomli grafik asari diqqatga sazovordir. 1934 yilda Mirzo Kozimiyning "Ko'rqinchli Tehron", 1935 yilda esa Abdulla Qodiriyning "Obid ketmon" romanlariga Usto Mumii tomonidan ishlangan illyustratsiyalar qizg'in kutib olindi.⁴⁹

1945—1970 yillar davomida O'.Tansiqboev, A.Abdullaev, R.Ahmedov, Y.Elizarov, K.Karaxan, M.Saidov, S.Abdullaev kabi rassomlar zo'r shijoat bilan ijod qilib, shuhrat qozondilar. Ularning barchasi "O'zbekiston xalq rassomi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan rassom" degan yuqori unvonlarga sazovor bo'ldilar. 1954 yilda Toshkent teatr san'ati instituti tarkibida rassomlik san'ati fakulteti ochilib, keyinchalik u Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutiga aylantirildi.

⁴⁸ Oyidinov N. "Uzbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Uqit. 1997 y.

⁴⁹ Ne'mat Abdullayev. San'at tarixi.

XX asrning 1950 yillarida o'zbek manzara janrida O'rol Tansiqboev karvonboshi bo'ldi. U ko'plab qishlok xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi. G'oyaviy va badiiy jihatdan yuksak saviyada ishlangan san'at asarlaridan biri O'.Tansiqboevning 1957 yilda yaratilgan "Qayroqqum GESi tongi" asaridir.

1950 yilda «O'zbekistonda bahor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi.⁵⁰

Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab o'tayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Xayotning obektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik holatda yuzaga kelishi «Ona o'lka» asarida (1951 y.) o'z aksini topdi. Kompozitsiya echimini – diograma usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa holat cho'lni ochishga bag'ishlangan «Taxyatosh» va «Issiq ko'l» - nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini “panorama usulida” tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O'zbekiston san'atining yangi bosqichida o'z-o'zini anglash, ma'naviy meros, hamda milliy an'ana va qadriyatlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'rganishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston rassomlari bugungi kunda nafaqat O'rta Osiyo mintaqasida balki dunyo rangtasvir olamida etakchi o'rinlarni egallab kelmokda. Ularning ijodlarida umuminsoniy qadriyatlar va badiiy meros masalalari o'zining yorqin va aniq echimlariga ega bo'lmoqda.

⁵⁰ O'zbekiston badiiy akademiyasi rassomlari.

II-BOB O'ZBEKISTON DASTGOHLI RANGTASVIR SAN'ATIDA MAISHIY JANRINING YORITILISHI

2.1. Mustaqillik davrida maishiy janrining yoritilishi

Barchamizga ma'lumki tasviriy san'atning janrlari mavjud. Masalan, portret, manzara, natyurmort, tarixiy va maishiy janrlardan iborat.

Janr so'zi frantsuz tilidan - tur ko'rinish degan ma'noni anglatadi. Umumiy tushunchasi bu - chegaralangan mavzuni o'zida aks ettiradigan san'at asarlari. Masalan, manzara, tabiat ko'rinishlarini aks ettiradigan rasmlarni manzara janriga oid rasmlar deyiladi. Alohida yoki odamlar to'pini aks ettiradigan rasmlar esa portret janridagi rasmlar deyilsa, meva, gul, uy buyumlari va shunga o'xshash narsalarning tasvirini aks ettiruvchi rasmlar natyurmort janridagi rasmlar deyiladi va x. k.

Maishiy janr - jamiyat va shaxsiy xayotdagi kundalik turmush tarzini o'zida aks ettiruvchi tasviriy san'at janri. Bu janrda rassom o'z zamonasidagi kundalik turmushda bo'layotgan voqea va xodisalarni, odamlarning yashash tarzi, dam olishi, mexnati va sport bilan shug'ullanishi, xullas ularning kundalik faoliyati bu janrning mazmunini tashkil etadi.

Insonlarning maishiy hayotini aks ettirishga qiziqish qadimdan mavjud bo'lsa ham lekin uning rivojlanishi va mustaqil janr darajasiga aylanishi XVII asrdan boshlab jamiyatda sodir bo'la boshlagan demokratik tamoyillarni ortishi bilan bog'liq. Shu davrdan boshlar rassomlar ijodida oddiy xalq xayotiga bag'ishlangan asarlar ko'paydi, mavzusi kengaydi.

Bu janr Gollandiyada keng rivojlandi. Buyuk Rembrandt, kichik golandlar Piter de Xoox, Terborx, Yan van Ostade va boshqalar ijodida shu janr etakchi o'rinni egalladi. Fransiyada Jan Batist, SHarden, Angliyada Uiyam Xogart, Rossiyada P.Fedotov, V. Perov, I.Repin va boshqalar ijodida ham shu janr xususiyatlari o'z ifodasini topdi.

O'zbek san'atida mayishiy janr XX asrning 20-30 yillaridan boshlab rivojlana boshladi. B.Xamdamiy, L. Abdullaev, X.Raxmonov, Z.Inog'omov va boshqalar shu janrning dastlabki namunalarini yaratdilar. N.Kashina, Z.Kovalevskaya, M.Saidov

ijodida xam shu janr etakchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ham bu janr ko'plab ijodkorlarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

Vatanimiz O'zbekiston olamda eng nurli diyor, bu xosiyat esa barcha o'zbek mo'yqalam ustalarining asarlarida yaqqol sezilib turadi. Adabiy asar asosida tasviriy asar yaratish orqali rassom unga yangi hayot bag'ishlagandek bo'ladi. Eng muhimi, rassom badiiy va adabiy asarni chuqur tushunishi zarur. Bunda uning kasbiy mahorati juda kerak bo'ladi. Rassom boy hayotiy, ijodiy tajribaga, chuqur bilimga ega bo'lishi kerak.

Badiiy xaqiqat qonuni bo'yicha xayot mohiyatini tahlil va sintez qilish asnosida ashyolarning tashqi ko'rinishini tasvirlab beradigan mutafakkir bo'lishi zarur. Badiiy jarayoni o'zlashtirish atrof muhitni o'rganishdan boshlanadi. Negaki ko'z qarash bilangina mohiyatni anglab bo'lmaydi, uni his qilish lozim. Xaqiqiy rassom tomoshabinning falsafasi orqali o'z asariga nazar soladi. SHundagina tomoshabin rassom bilan birga qadam tashlaydi, go'zallikni anglaydi, o'zi uchun oddiy tuyulgan narsalarning ilohiyligini tuyadi. Har bir rassom bu ishga o'zicha yondoshadi.

Ijod yo'lini har bir inson o'zi tanlaydi, uzoq yillar davomida milliy an'analar, o'zbek san'atidagi realizm tabiati, murakkabligi va qayta tiklanish haqida turli-tuman munozaralar kelib chiqadi. Rassom necha-necha yillar davomida serjilo ranglar orqali yaratgan asarlarida goh u, goh bu ohanglarda akc ettiridalar. Har bir rassom uchun bolalik chog'larini eslash, so'zlab berishi, estaliklarni hayolan varaqlashini kuzatarkansan, uni bolaligini qo'msashini, sog'inganligi seziladi.

Maishiy janr haqida gapirarkanmiz, rassom yashayotgan davr voqialarini ifodalovchi tasviriy san'atning bu janri qadim zamonlarda paydo bo'lgani va u sayyor rassomlar ijodidagina komol topganini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi tasviriy san'at maishiy janirining bir bir qator asarlarida o'z aksini topdi. S.A.Grigorevning «Komsomolga» qabul qilish suratida maktab hayotidagi oddiy, shu bilan birga, tantanali voqea – komsomolga qabul qilish marosimi ko'rsatilgan bu suratda kishining diqqatini tortadigan narsa shuki, rossom bilan ahil komsomollar oilasining odatdagi, kundalik hayoti bilan tanishtiradi. Maishiy janrga B.V.Iogansonning “Rabfak kelmoqda ”

F.P.Reshetnikovning “ Kanikulga keldi” suratlari va boshqa asarlar ham mansubdir mani asarim hamohongligida qiyoslanib. Maishiy janr asosida asarimning mazmun doirasi va falsafiy qarashlari ifodalangan.

Maishiy janrlarda ijod qilgan rassomlar

Rembrandt Harmenszoon van Rijn (15-iyul, 1606 — 4-oktabr, 1669) gollandiyalik rassom va ofortchi bo'lgan. U Yevropa badiiy tasvir tarixidagi eng muhim musavvirlardan hisoblanadi. Golland san'atining eng gullagan davri XVII asr 40-60-yillariga to'g'ri keladi. Bu buyuk golland rassomi Rembrandt ijodida namoyon bo'ldi. Rembrandt golland san'atining yutuqlarini umumlashtirib, uni yangi yuksak pog'onaga ko'tardi. Uning ijodi teran, g'oyaviylik va chuqur mazmun, obrazlarining g'oyat mahorat bilan ishlanganligi bilan e'tiborni tortadi.

Rembrandt o'z davri san'atkorlaridan asarlari mavzusining rang barangligi bilan ham, rang tasvir, gravyura (ofort) va qalam-suratda yuksak asarlar yarata olishi bilan o'zib ketdi. Rembrandt ijodining asosiy mavzusi-inson, hayoti, uning ichki manaviy dunyosi, his-tuyg'u va kechinmalarining rang-barangligidir. Uning qahramonlari kuchli irodaga ega, ma'naviy boy, og'ir shart-sharoitda ham insoniylik fazilatlarini saqlay oladigan shaxslardir. Rembrandt 1606-yili Leyden shahrida tegirmonchi oilasida tug'ilgan. Shu yerda lotin maktabini tugatgach, Leyden universitetiga qabul qilindi. Lekin Rembrandt u yerda 1-yilcha o'qidi xolos. Rassomlikka bo'lgan qiziqishi tufayli Yakov Svanenbyurx degan o'rtahol rassom ustaxonasida 3-yil, keyinroq esa Amsterdamda Piter Lastman ustaxonasida 1,5-yilcha tasviriyot asoslarini o'rgandi. So'ng rassom o'z shahriga qaytdi. 1625-yili Rembrant o'z ustaxonasini tashkil etdi. Uning ijodining dastlabki bosqichi 1632-yilgacha davom etgan. Bu yillarda rassom hayotiy, maishiy va diniy mavzularda asarlar yaratdi, portret ustida ishladi, avtoportretga e'tibor berdi. Uning o'sha davrlarda ishlangan asarlarida goh Lastman, goh qaravajochilar ta'siri seziladi. 20-yillar oxiri va 30-yillar boshlarida rassomning o'ziga xos dastxati paydo bo'la boshladi. Uning qahramonlar ma'naviy dunyosini ochishga intilishi orta boshlagan. Rassom nur-soya imkoniyati, rang surtmalarining ruhiy kuchiga alohida e'tibor qaratgan. Ular

obrazning hajmli va fazoviy tasviriga xizmat qilibgina qolmay, balki asarning ta'sirchanligini ochirishda ham muhim vositaga aylangan. Uning bir figurali „Apostol Pavel“ kompozitsiyalarida bu xususiyatlar ko'rinadi. Rassom bu yillarda, ayniqsa, avtoportret sohasida ko'p mehnat qildi. U inson mimikasi va uning kishi ichki dunyosi bilan aloqasini tushinib olishga harakat qildi. U ofort san'atida dastlabki mashqlarini boshlaydi. San'atkor 1632-yili Amsterdamga ko'chib keldi va tezda eng mashhur rassomga aylandi. Buyurtma ishlarining ko'payib borishi uning moddiy tomondan mustaqil bo'lib, atrofiga shogirdlarini to'plashiga imkoniyat yaratdi. Amsterdamlik bir boy zodagonning Saskiya ismli qiziga uylanishi uning moddiy jihatdan mustaqilligini yanada mustahkamladi. Rassomning bu yillarda yaratgan asarlari ko'tarinki ruhda ishlangan. U kompozitsiyalarini yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi. Qimmatbaho buyumlar, gul va billurlar, liboslar uning yaratgan asarlarga quvonch va shodlik tuyg'ularini bag'ishladi. Rembrandt qaylig'i Saskiyani gul va kimxob liboslarda tabiat va go'zallik ma'budasi Flora obrazida tasvirlaydi. Rassomning shu yillardagi baxtli damlarini uning „Saskiyani tizzasida olib o'tirgan holda ishlagan avtoportreti“ (1636-yil) asari aks ettiradi.

Rembrandtning Amsterdamda yaratgan dastlabki yirik asari „Doktor Tyulpning anatomiya darsi“ (1632-yil) unga katta shuxrat keltirdi. Doktorni o'rab turgan vrachlar guruhini aks ettiruvchi bu asar kompozitsiyasi hayotiy chiqqan. Rassom tasvirlanuvchi har bir obrazning o'ziga hos qiyofasini yaratish bilan birga, ularning anatomiya darsi mashg'ulotlaridagi psixologik holatini ham ochishga ham muvaffaq bo'lgan. Tasvirlanuvchilar orasida doktor Tyulpning keng silueti va qo'lining erkin harakati ko'rsatilgan kompozitsiyani markazlashtirishga va hamma obrazlarning yagona g'oya atrofida birlashtirishga yordam bergan. Kompozitsiyaning yaxlit va tugal bo'lishida nur-soya ham muhim o'rin tutgan. Nur kompozitsiya markazini yanada aniq bo'lishiga, doktor Tyulp atrofida g'ilarning holat va xarakteri tabiiy bo'lishiga imkon bergan. Rassom 1630-yilda grafika bilan jiddiy shug'ullana boshladi. Uning ofortlari Injil va Tavrotdan olingan syujetlarga ishlangan. Qalam suratlari ham o'zining nafis va yuksak mahorat bilan ishlanishi jihatidan ajralib turadi. Shu yillarda rassom ijodida realistik tamoyillar chuqurlashib borgani seziladi.

Bu, ayniqsa, mifologiyadan olingan sujetga ishlangan „Danaya“ suratida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson qomati plastikasini, duhoba singari mayin ayol badani terisining go'zalligini rassom yuksak mahorat bilan tasvirlaydi.

1640-yillardan boshlab, Rembrandt ijodida yangi davr boshlandi va bu davr 1655-yilgacha davom etdi. Hayot haqiqatini to'liq ko'rsatishga intilish, psixologik masalalarga qiziqishning oshib borishi rassomning erkin uslubda ijod qilishiga va uni yirik, o'ziga hos uslubga ega ijodkor darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Rassom shu yillarda ijodiy kamolot cho'qqisini egallab, insoniylik g'oyalari bilan sug'orilgan chuqur falsafiy asarlar yaratishga erishdi („Muqaddas oila“ (1645-yil), „Deraza oldida turgan Xendrike“ (1645-yil), „Yan Siks portreti“). Shu yillardan rassom qalamsuratda ham ajoyib asarlar yaratdi. Biroq rassom hayotining so'ngi o'n yilini nihoyatda qashshoqlik va xorlikda o'tdi. Qarzlarini o'z vaqtida to'lay olmasligi tufayli o'zi yashab turgan joyini tashlab, kambag'allar yashaydigan kvartalga k'ochib o'tishga majbur bo'ldi. Bu yillarda uning o'gli Titus va ikkinchi xotini ham vafot etishdi. Shunday xorlik va zorlikda qolganida ham san'atkor „Sindiylar“ (Sukno ishlab chiqarish sexining boshliqlari), „Assur Omon va Esfir“, „Adashgan o'g'ilning qaytishi“ (1669-yil) kabi yuksak mahorat bilan o'tkir psixologik asarlar yaratdi. „Adashgan o'g'ilning qaytishi“ rassomning so'ngi yetuk asaridir. Bibliyadan olingan syujetga rassom ko'p murojaat qilgan. Mazkur mavzuda ofortlar ham ishlangan. Lekin uning rang tasvirdagi asarlari o'zining psixologizmi va insonparvarlik ruhiga yo'g'rilgani bilan ajralib turadi. Otasi oyog'iga yiqilgan og'il va uni otalik mehri bilan qarshilayotgan ota obrazi kishida chuqur his-hayajon uyg'otadi. Otaning o'z og'li qilmishlarini kechirib, unga mehr va achinish bilan boqishida rassom hayot yo'li nihohat mashaqqatli ekanligini zo'r mahorat bilan ochib beradi. Otaning qo'llari harakatida uning mehribonligi sezilib turadi. Aksincha, o'g'ilning yalangoyoq, kir, yirtilgan, juldur kiyimda tiz cho'kkan holatda tasvirlab, afsuslanishni aks ettiradi.

Kompozitsiyada tasvirlangan boshqa ovrazlarning sokin, osoyishta, chuqur hayolga cho'kkan holatlari aniq ko'rsatilishi bo'layotgan voqea mazmunan to'liqroq his etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rembrandt qalamsurat va ofortchi sifatida ham mashhur. Uning ofortlari o'zining g'oyaviy yo'nalishi, yuksak mahoratni

namoyon etishi jihatidan uning rangtasvirda yaratgan asarlari bilan bir qatorda turadi. U ofort san'atida kichik hajmli lirik planda ishlangan suratlarini ham, ko'p figurali maishiy janrdagi asarlarini ham yaratdi. Ofortda ishlangan portretlari ham uning ijodida alohida o'rin egallagan. Rembrandt ijodining ahamiyati Gollandiya uchun beqiyos bo'ldi. Rembrandt realizimining qudratli kuchi shu davr rassomlarini o'ziga jalb etadi. Keyingi san'at taraqqiyotida ham muhim rol o'ynadi.

2.2. O'zbekiston rassomlari ijodida maishiy janr

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq va voqeaning eng hususiyatli, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi. Inson yashab turgan muhitda sodir bo'layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonlarda paydo bo'lgan. O'tgan asrning demokratik rassomlari halq hayotini astoydil haqqoniy, tasvirlab berganlar. Bunga I.Repinning "Yangi kuyovni kuzatish", E. Makovskiyning "Hiyobonda", V.Perovning "Uchovlon" va boshqa suratlari o'ziga misol bo'la oladi. Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi. V. Laktinovning "Frontdan hat" F.Reshetnikovning "Yana ikkimi", "Ta'tilga keldi" asarlarida Vatanga Muhabbat, maktab hayoti bilan bog'liq goyalar tasvirlangan.⁵¹

Maishiy janrda ham kompozitsiyaning talablari mavjud. Mazmun va g'oyani kompozitsiyaning ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek, kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish kerak. Kompozitsiya tuzilishi hona chekkasi interer yoki ochiq havoda bo'lsa-da, asosiy o'rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi. Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo'lgan mavzuga oid ko'plab bajarilgan homaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo'ladi.⁵² Ikki, uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki ishhonada odamlarning mehnat qilish yoki dam

⁵¹ \http://eduportal.uz/o'zbek. rassomlari. Janrlar

⁵² \http://eduportal.uz/janrlar.8/band/9-10.htm

olish jarayonini tasvirlash uchun uning kasbi, harakterini, hayotdagi voqeaning qiziqarli holatini o'rganish lozim. Naturadan bajarish bilan bir qatorda hayoldan va tasavvur qilib ishlashni, mashq qilishni odatga aylantirish kerak. Bularning hammasi badiiy ijod jarayonining o'sishiga, tasavvurini boyitishda muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

A.Ivanovning o'zining "Plyajdagi bolalar", "Isoning halqqa ko'rinishi" insonni tabiat qo'ynida ochiq havoda tasvirlanishiga, nafis, mohirona ishlanganligi, quyosh nuri yoritilganligi, tabiatdagi dam olayotgan bolalar, bo'y barovar turli holatda tasvirlangan A.Ivanov ijodining g'oyaviy yo'nalishi, plener, realistic peyzaj, portret, syujetli kompozitsiya yaratishdagi rus sayyor rassomlari uchun badiiy maktab, ko'rgazmali bir namuna bo'lib hizmat qiladi.

Tasviriy san'atning qadimiy janrlaridan bo'lib, tarixiy botal asarlarda ham vosita sifatida muhim rol uynaydi. Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.⁵³ Maishiy asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va inson obrazini yaratadi. Tasviriy san'atdagi maishiy janriga oid asarlar insonga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va botal mavzudagi asarlarda bevosita maishiy janrga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Urushdan keyingi yillarda muntazam tashkil etilgan Respublika, sobiq ittifoq badiiy ko'rgazmalar, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Maishiy hayotni yangicha his etish, yangicha talqin qilish hissiyoti paydo bo'la boshladi. Rassom sanoat, shahar, lirik voqealarni aks ettirmasin tabiatga ishtiyoqi ortib bordi. XX asrni 50 nchi yillari o'zbek manzara janrida Urol Tansiqboev karvonboshi bo'lib qoldi. Qishloq xo'jalik tematikasiga oid asarlar yarata boshladi.⁵⁴

1950 yili «O'zbekistonda bahor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi. Erta bilan esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatni uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Hayotni ob'ektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishini epik holatda yuzaga kelishi «Ona o'lka» asarida

⁵³ <http://eduportal.uz/jahon.tarixi.8/band/9-10.htm>

⁵⁴ Maqola muallifi musiqashunos Otanazar Mat'qubov.

(1951 y) o'z aksini topdi. Kompozitsiya echimini panorama usulida echish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa cho'lni ochishga bag'ishlangan «Taxna-Tashu» va «Issiq ko'l» nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida tasvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir.⁵⁵

«Qayraqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V. Veymarn, U. Tansiqboev Moskva Izd. Iskusstva 1958 g). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan taqdirlangan.

Hozir u Moskvadagi Sharq xalqlari Davlat san'at muzeyida saqlanmoqda. Oldimizda katta keng gidroelektrostantsiyani qurilishi panoramasi, orqasida biryuza rangli qayroqum dengizi yoyilgan kompozitsiya markazi ham gidrostantsiya qurilishi. Qurilishi hali nihoyasiga etmagan. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi qayroqumda haqiqatni poetik talqin etilishi bilan manzara asarida mahoratini ko'rsata bilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuslardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatni bepoyon kengligidagi qaynoq hayot o'z aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoqi bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.⁵⁶ U. Tansiqboev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdi. «Almaliqda» 1958 y., «Tsement zavodi» 1960 y., «Charvak GES qurilishida» 1969-1970 y. asarlari shular jumlasidandir. Ural Tansiqboev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina qolmay, balki undagi inson qo'li, aql-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlar tasvirlanadi. O'zbek tabiat manzara san'atining kuychisi Ural Tansiqboevni ko'p asarlari Moskvadagi Tretyakov gallereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda. Rangli beqasamga o'ralgan tabiat qo'yniga berkilgan tog' yonbag'ridagi qishloq, quyosh nurida jilvayotgan daraxtlar orasidagi Burma yo'llardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. O'sha davrdagi kekxa

⁵⁵ B. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.

⁵⁶ M. Nabiev. Rangshunoslik. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.

rassomlar O. Tatevosyan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, O'zbekiston tabiati va hayotdagi sodir bo'layotgan yangiliklarni aks etdirdilar. Z. Kovalevskaya, Z. Inog'amov, N. Qo'ziboev, K. Bogaduxov, G. Ulko, M. Esin, N. Shurigin kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.⁵⁷

P. Benkov metodikasini yaxshi egallagan shogirdi A. Roziqovni «O'zbek hovlisi» (1947 y), «Sherdor hovlisida» (1950 y), «Samarqandda bahor» (1958 y) kabi asarlari Benkovni eslatadi.

Maishiy janrning bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) motivlari shular jumlasidandir. Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi.⁵⁸

Shahar hayoti mavzusida shahar hayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh boglar hamda er osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq hayoti, bepayon kenglik, tog manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'prik, metro qo'rilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan. Maishiy janrning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizigi, fazoviy masofa, format, perbspektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir. Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli xususiyatlarni sinchiklab kuzatish lozim.⁵⁹ Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish

⁵⁷ B.Boymetov, N.Tolipov. Maktabda tasviriy san'at to'garagi. – Toshkent: 1995.

⁵⁸ N.Abdullaev. San'at tarixi. 2 qismlik. I – qism. – Toshkent, 1987.

⁵⁹ N.Abdullaev. San'at tarixi. 2 qismlik. I – qism. – Toshkent, 1987.

kerak. So'ngra havo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor.

Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritni aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyani yakuniy nushasini amalda bajarish kerak. Uni qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.⁶⁰

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

⁶⁰ N.Abdullaev. San'at tarixi. 2 qismlik. II – qism.– Toshkent, 2001

III BOB. “BOBOLAR MEROSI” ASARI YARATILISHINING TAHLILIY QISMI

3.1. “Bobolar merosi” rangtasvir asarining maqsadi va g’oyasi

Rangtasvir xaqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o’rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo’lidir. Shularga bog’liq holda har-bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, xajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamatasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg’unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir.⁶¹

Ma’lumki, insontanasi harakatda bo’lganda u va undan har xil masofada joylashgan narsalar yoki boshqa odamlarning qiyofasi muhit holatiga muvofiq o’zgarib ko’rinadi. Bunda tasvirni tasvir ob’ekti uzoq yoki yaqin masofada joylashganligiga qarab planlarga ajratib aks ettirish yo’li qulaydir. Bunday ish ikki yoki undan ortiq kishidan iborat kompozitsiyaviy vazifani ishlash talab qilinganda amalga oshiriladi.⁶²

Murakkab kompozitsiyali, mavzuli voqeaband kompozitsiyalarni tasvirlaganda topilgan qadimiy obidaning qanday holatda ekanligi muhim rol o’ynaydi. Chunki chizilayotgan paytda muhim detallarga ham ahamiyat betish kerarligi, asosiy narsalar yuzaga chiqarilishi talab etiladi.. Shunday muhit holatlarini ko’rsatish albatta rang-tuslarni ustalik bilan ishlatishni, tajribani taqazo etadi. Ranglar majmuining o’zaro uyg’unlikda tiniq-yorqin yoki xira tuslari so’niq tasvirlash orqali ham mavzu mohiyatini, mazmunini ochib ko’rsatish mumkin. Bu holda ranglar gammasiga, uning ma’nodorligiga alohida e’tibor qaratiladi va uning «kaliti» topib qo’llanadi.⁶³

Ma’lumki, tarixiy asarni qanday bo’lsa shundayligicha tasvirlab berish uxhun uning kompozitsiya markazini topib, kompozitsiya ifodaviyligini yanada yaxshi qilib

⁶¹ E.V.SHoroxov. Kompozitsiya. Uchebnik.–Moskva, 1984

⁶² T.Maxmudov. Mustaqillik va ma’naviyat. – Toshkent, 1993.

⁶³ M.Nabiev. Rangshunoslik. - Toshkent: O’qituvchi, 1984

ta'minlash mumkin. Bunda kompozitsiya markaziga urg'u beruvchi rang va tus munosabatlariga murojaat etiladi. Ular bo'rttirib tasvirlanadi.

Insonlarning gavdasi, badanini rangtasvirini ishlash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan, quyoshda qorayib, rang olmagan, odam terisi juda nozik rang tuslarida bo'ladi. Uni tasvirlash, rang-tusini o'xshatib ifodalash ancha qiyindir. Inson gavdasini har xil ko'rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasi, o'ziga xos shakl-shamoyilini o'rganishni, plastik echimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam yoshini gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamtasvirini chizib, o'rganilishi kerak. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg'unligiga ham alohida e'tibor bilan qaralishi, mutanosiblik barcha narsada o'z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo'lagi, rangida namoyon etiladi.⁶⁴

Tasvirda qalamchizg'i mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, xajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi.

Agar insonlar perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'рни ahamiyatsizdir. Rangtasvirni ustoz rassomlarimiz shunday ta'riflaydi; «Bu 100 % qalamtasvir va 100 % rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir».⁶⁵

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'рни beqiyosdir. Ammo, mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jixatdan ijodkorga bog'liq.

⁶⁴ E.V.SHoroxov. Kompozitsiya. Uchebnik.—Moskva, 1984.

⁶⁵ R.Xasanov Tasviriy san'at o'qitish metodikasi.—Toshkent, 2005.

Nazariy bilimlar bilan amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo'lish lozim: qo'yilmadagi nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o'zgarishlarni seza bilish, tasvirni qog'oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish, shakl hajmini tushayotgan soya - yorug' orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jixatdan yaxlit bir butunlikda yakunlash zarur.

Demak eng muhimi ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlash hisoblanadi.

3.2. "Bobolar merosi" rangtasvir asarining yaratilish tarixi

Ushbu malakaviy bitiruv ishim "Bobolar merosi" asari mato moybo'yoqda ishlangan. Milliy hunarmandchiligimizning abadiyligi ushbu asarni yaratishimga turtki bo'ldi. Kartina uchun ustaxonada turli eskizlar chizdim. Ustozlarim bilan maslaxatlashib ushbu kompozitsiyani yaratdim. Badiiy ijod tajribasi shakllanish mobaynida, kompozitsiyaning asosiy izchil, mukammal qonun qoidalari va vositalari, hamda ishlab chiqishga sharoit yaratib beradi. Shu jumladan olimlar tomonidan har qanday san'at asarini his qilishda zarur bo'ladigan go'zallikning prinsiplari ishlab chiqilgan. Ular odatda, san'at nazariyasida, badiiy va kompozitsion ifoda vositalari, xususan nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastiklik, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik, arxitektonika, uyg'unliklar deb yuritiladi. Kompozitsiyaning asosiy mazmun hususiyatlaridan biri mantiqiylik, shakl va qismlarning o'zaro mutanosibligidir. Rassomlar o'z asarlarining qay bir badiiy, ifodaviy, kompozitsion vosita asosida yaratilayotganligiga alohida e'tibor berishi lozim. Asarning koloriti turli ranglarni tashkil qiladi. Asarni ishlash issiq va sovuq ranglardan keng foydalandim va obrazlar yorqinligi bilan qiziq, ular mehnat jarayonida tasvirlangan. Shu bilan tomoshabinni o'zbek milliy hunarmandchiligiga qiziqтира oladi deb o'ylayman. Asosiy qaxramonlar yorug' va yorqin rangda tomoshabinni etiborini tortadi. Kartina maishiy hamda manzara janirida ishlangan. Kartinadagi jarayonlar, turli obrazlar va ranglar uyg'unligi, yorqinligi orqali xozirgi zamonni aks ettirdim.

Mening "Bobolar merosi" nomli rangtasvir asarim o'zida bir guruh tandirchilar va u yerdagi tandirlarni aks ettiradi. Asarning g'oyasi, bobolarimizdan meros bolib

kelayotgan milliy hunarmandchiligimiz mavzusiga bag'ishlanadi. Kulolchilikning alohida yo'nalishi bo'lmish tandirchilikning umri boqiy. Non bor ekanki, tandir barhayot. Shunday ekan tandirchilik hunari ham abadiy davom etib bobolardan, otalardan farzandlariga me'ros bo'lib o'tib keladi.

Asarning 1-planida tandir yasayotgan hunarmand ustalarni ko'rishimiz mumkin. Bu asarni kompozitsion to'ldirishga yordam beradi, ya'ni asarning ritmini saqlab beradi. Kartinaning orqa planiga ahamiyat beradigan bo'lsak, u yerda bir qancha tandirlarni ham ko'ramiz.

Bobolar merosi asarini ishlashdan avval men birinchi navbatda tasviriy san'atning maishiy janriga murojaat qildim. Shu bilan bir qatorda asarni ishlashdan avval bir qancha adabiyotlar, internet sahifalaridan xam keng ko'lamda foydalanishga xarakat qildim. Asarni ishlashda maishiy janrda hunarmandlar ya'ni tandirchilar hayoti va mehnat faoliyatini o'rganish maqsadida bir qancha adabiyotlarga murojaat qildim. Ayniqsa tarixshunos olimlarning yozma manbaalaridan kengroq foydalangan holda o'zbek xalqlar xayotini va turmush tarzini yorqin ranglar orqali yoritishga xarakat qildim. Tanlangan bitiruv malakaviy ishimda o'zbek xalqlarning milliy hunarlari o'z kasblariga bo'lgan mehri-oqibatini tasvirladim

Asarni ishlash bosqichlariga to'htaladigan bo'lsak rangtasvir asarini yaratishda ma'lum tartibga rioya qilingan holda men tasviriy asar yoki devoriy surat ustidagi ishni uncha katta bo'lmagan o'lchamdagi bir qancha eskiz va chizgilarni bajarishdan boshlayman. Bu eskizlar yordamida o'z ijodiy fikrimni aniqlab olaman. So'ngra asarni rangda ishlashni boshlayman.

Bo'yoqlarni tekislik yuzasiga surishning ko'p usullari mavjud, ba'zi rassomlar lessirovka usulidan foydalanishni afzal ko'radilar va quruq bo'yoqli qatlam ustiga nozik yorqin ikkinchi qatlamni surishadi. Boshqalari zarur rang echimiga birdaniga bir marta bo'yash orqali erishadilar. Uchinchilari esa surkama usulda mo'yqalam tortib bo'yoq beradilar. Musavvir bir vaqtning o'zida chizmatasvir, kompozitsiya, shakl, hajm chiqarish, fazoviy xususiyatlarni berish va rang uyg'unliklari ustida ishlashi mumkin. Buning uchun u, kuchli kuzatish xotirasiga, qalam bilan aniq chizish qobiliyatiga, kompozitsiya tasavvuriga, ranglarni his qilish fazilatiga ega

bo'lmog'i kerak.⁶⁶ Aksariyat musavvirlar o'z ijodiy ishlarini umumiyligidan qismlarga bo'lib ishlashni afzal ko'rishadi. Ular buyum hajmini nazarda tutgan holda, rang ustida ish olib boradilar. Shundan so'ng tasvir rang uyg'unliklari va koloritini aniqlaydilar. Oxirgi bosqichni ular, yana umumlashtirish bilan tugallaydilar.

Asarning yaxlitligiga erishish uchun ortiqcha qismlarni olib tashlash, kontrastni yumshatish, bosh g'oyani bo'rttirish kerak bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonida rangtasvir kompozitsiyasi ustida ketma-ketlik tartibida ishlash talab etiladi. Odatda tekislik yuzasi maxsus qorishmalar yordamida gruntlanadi, ya'ni yuza bo'yab chiqiladi. Bunda turli guash, suvbo'yoq, tempera, moybo'yoq va hokazolardan foydalaniladi. Bo'yoqlar yuza tekisligiga turli kattalikdagi uchli, yapaloq, yumaloq va shu kabi shakldagi mo'yqalamlar yordamida surtiladi. Ba'zida buning uchun mastixin, pichoq, xatto barmoqlardan ham foydalaniladi. Biroq tasviriy san'at asarlarini yordamchi vositalar bilan emas, balki maxsus asboblarda yaratish afzalroqdir. Chizish texnikasi ko'pincha bo'yoqlar, ertigichlar va asboblarning mosligiga qarab tanlanadi.

⁶⁶ N.Abdullayev Sharq xalqlari san'ati tarixi .T.2003

XULOSA

Mustaqilligimiz sharofati bilan O'zbekistonda milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborni ortib borishi natijasida O'zbekiston Badiiy Akademiyasining tashkil etildi. 1990 yillardan keyingi O'zbekiston tasviriy san'ati olamida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Erkin echimdagi milliy ruxni o'zida ifodlagan ko'plab asarlar yaratildi. Bu davrda ijod qilgan rassomlardan Javlon Umarbekov, Alisher Mirzaev, Bahodir Jalolov, Sa'dulla Abdullaev, Fayzulla Axmadaliev, Sergey Alibekov, Akmal Ikromjonov, Rustam Xudoyberganov, Akmal Nur, Bobur Ismoilov, Alisher Aliqulov kabi qator rassomlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Ushbu rassomlar ijodida tarixni qayta tiklash bilan birga zamonaviy echimdagi asarlarini yaratish davr talabi edi. Rassomlar tinimsiz izlanishlari natijasi o'laroq ko'plab badiiy qiymatga ega betakror asarlar yaraldi. Erkin yechimdagi milliy ruxni o'zida ifodlagan ko'plab asarlar yaratildi. Bu davrda ijod qilgan rassomlardan Javlon Umarbekov, Alisher Mirzaev, Bahodir Jalolov, Sa'dulla Abdullaev, Fayzulla Axmadaliev, Sergey Alibekov, Akmal Ikromjonov, Rustam Xudoyberganov, Akmal Nur, Bobur Ismoilov, Alisher Aliqulov kabi qator rassomlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Ushbu rassomlar ijodida tarixni qayta tiklash bilan birga zamonaviy echimdagi asarlarini yaratish davr talabi edi. Rassomlar tinimsiz izlanishlari natijasi o'laroq ko'plab badiiy qiymatga ega betakror asarlar yaraldi.

O'zbekistonning bugungi olib borayotgan siyosatining asosi negizida erkinlik g'oyasi bilan singdirilgan asrlarga talab vaqt o'tishi bilan ortib bormoqda, bu esa rassomlar ijodiga alohida e'tiborni ortishidan dalolat beradi.

O'zbekiston zamonaviy rangtasvir san'atining asosiy tamoillari uslublarning keng ko'lamliligi hamda yuqori va chuqur ijrochilik mahorati, obrazlar mazmundorligini saqlagan holda, realistik an'analardan tortib, avangardlik yo'lidagi izlanishlargacha namoyon bo'ladi. Realistik an'analarni saqlagan xolda yaratilgan har biri inson qiyoasarfasi o'ziga yarasha bir olam va bir dunyodir.

Ma'naviy merosimizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, uyg'un holda saqlab qolish, ruvojlantirish hamda kelgusi avlodlarga etkazib berish asosiy vazifaga aylangan. Zero, "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni,

mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘tib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir”⁶⁷.

Ma’naviy meros–yoshlarda o‘zlikni va o‘tmishdan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantiradi. Buning yaqqol ne-ne daholarni, qahramonlarni, chinakam millatsevar, vatanparvarlarni, bir so‘z bilan aytganda, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan munavvar zotlarni kamolga yetkazgan xalqimizning yaqin o‘tmishida ko‘rishimiz mumkin. Buyuk, o‘lmas qadriyatlarning yaratuvchisi, ijodkori bo‘lgan, ayni bir paytda, uni avdoddan–avlodga gard yuqtirmay, mo‘tabar qilib etkazib kelayotgan xalqimiz, nihoyat uzoq davom etgan istibdod zanjiridan qutildi. Eng muhimi, asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan, milliy qadriyatlarga bugungi kunda egalik qilmoqdamiz.

Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar darajasida gullab-yashnatishning chuqur, ilmiy asoslangan yunalishini ko‘rsatib berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, millatimiz mehnatsevar xalq. Bu xalqdan san’atsevarlikni, vatanparvarlikni, an’analariga sodiqligini kutsak va san’ati orqali millatini ramzi sifatida o‘ziga xos kadrlarini kashf etishga ilmiy yondashuvimiz millat mafkurasiga ko‘makchi bo‘lgan modullaridan birini yaratishimizga turtki bo‘ladi.

Shundagina xalqning hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ma’rifiy sohalarda xalqning hayot tarzidan yangicha fikrlar ozuqasiga to‘yingan “Bobolar merosi” mavzusidagi kabi asarlar qolaversa, ajab emas millatni butun dunyo qatoridagi buyuk millat sifatida salohiyatini, o‘rnini va tarixini poklab qolishimiz kelajak uchun mavhum bo‘lib sanalmaydigan xayrli ishlarimizdan biri bo‘ladi.

⁶⁷ Karimov I.A “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” – T.: O‘zbekiston, 2008 y.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Istiqlol va ma’naviyat” – T.: O‘zbekiston, 1991 y.
2. Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddas” – T.: O‘zbekiston, 1996 y.
3. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” – T.: O‘zbekiston, 1997 y.
4. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” – T. O‘zbekiston, 1998 y.
5. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” – T.: O‘zbekiston, 2008 y.
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T.6. T.: «O‘zbekiston», 1997
7. Taktash R.X. «Izobrazitelnoe iskusstvo Uzbekistana (vtoraya polovina XIX veka do 60-e gg. XX veka).» - T.: «Fan», 1972 g.
8. Taktash R.X. “Iskusstv Sovetskogo Uzbekistana” – M.: Sovetskiy xudojnik, 1976
9. Alekseeva V.V. “Chto takoe iskusstvo?” – M.: Sovetskiy xudojnik, 1979 g.
10. Pugachenkova G.A., Rempel L.I “Istoriya iskusstv Uzbekistana”. T.; 1984 g.
11. Vipper B.R. “Vvedeniya v istoricheskoe izucheniye iskusstvo” M.: “Izobrazitelnoe iskusstvo”, 1985 g.
12. Tahrir hay’ati “O‘zbekiston san’ati” (1991-2001 y). – T.: SHarq, 2001y.
13. Mualliflar jamoasi “Ma’naviyat yulduzlari” – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001 y.
14. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’at mashg‘ulotlarini takomillashtirish yo‘llari. – T.: O‘qituvchi, 1986. – 96 b.
15. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: o‘quv qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 2003. – 208 b.
16. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1994. –312 b.

Maqolalar.

1. Akilova K. “O‘zbekiston rassomligi” - (1991 – 2007) katalogi kirish maqolasi.
2. Ahmedova N. “Davr va rassom” – San’at, 2001, 3-son.
3. Bulkina I. “Maysalarning shivirin tinglab” – San’at, 1999/2-son.
4. Jo‘raeva L. “Ijod qilish – o‘zini namoyon etishdir” – San’at, 2002/1-son.

5. Maxmudov T. “XX asr san’atida realizm” – San’at, 1999/1-son.
6. Toqtosh R. “San’atning makoni xususida” – San’at, 1998/1-3 son.
7. Xakimov A.A. “Moviy arg‘umoqlar – sariq tovus: 1990 yillar rangtasvirida qochirimlar” – San’at, 1999/1-son.

Internet saytlari:

www.uza.uz;
<http://balakirevschool.ru>;
<http://www.catsparella.com>;
<http://psypress.ru>;
<http://iqrate.com>;
<http://arteluce.ru/svetovoj-dizajn-interera>;
<http://barnaul-reklama>;
<http://www.oknabober.ru>;
<http://ru.wikipedia.org>;
<http://uniclub-khb.ru>;

Tayanch atamalar

1. Tasviriyy san'at fanining atama va iboralari:

Natura, fon, zamin, simmetriya, yodgorlik, qirmizi, se barg, chorbarg, oygul, paxtagul, natyurmort; manzara, turmush janrlari, shakl, surat, qalamtasvir, ritm.

Portret, tarixiy, batal, animal, mifologiya, barikram, gulnor, tutiyo, feruza, perspektiva, ufq chizig'i, eskiz, siluet, yorug', soya, yarim soya, shu'la, refleks, shaxsiy soya, tushuvchi soya, kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik kompozitsiyasi, mo'jiz rangtasvir, mahobatli rangtasvir, mahobatli haykal, mozaika, freska, marmar, gips, stilizatsiya.

Naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, badiiy kashtachilik, zardo'zlik, matoga gul bosish, naqqosh, ganchkor, zardo'z, sopoldo'z, misgar, kashtachi bofta. Ko'p barg, chinnigul, gullola, marqula, gulsafsar, qo'shband, islimi, girit, murakkab, format me'mor, koshin, arka, panjara, peshtoq, gumbaz, minora.

Avtoportret, nilobi, shingob, novvoti, lojuvard, kitob grafikasi, gazeta-jurnal grafikasi, dastgohli grafika, zarhal harf, bosh bezak, yakuniy bezak, illyustratsiya, zarvaraq, titul, afisha, gumbaz, ravoq, maket, gotika, romantizm, etyud.

Dekoratsiya, diptix, triptix, rang doirasi, sadaf rang, nilgun, simob, novshadil, kumush xal, tilla xal, plakat pero, shrift, reproduksiya.

Kolorit, abstraksionizm, kubizm, avangardizm, akademizm, impressionizm, realizm, formalizm, galereya, karakatura, molbert, orginal, panno, pastel, sous, sangina, etyudnik, tagkursi, retush, salon, san'atshunos, slayda, ekspozitsiya.

2. Tushunchalar:

Iliq ranglar, sovuq ranglar, xromatik ranglar, axromatik ranglar; og'ir ranglar, engil ranglar, manzara va turmush janrida ijod qiluvchi 3-4 rassom ismi va familiyasi; 1-2 amaliy san'ati ustasining ismi va familiyasi; xalq san'ati ustasi.

Kompozitsiyaning asosiy vositalari: ufq chizig'i, kuzatish nuqtasi, yorug' soya qonunlari; narsalardagi yorug' va soyalarni yorug'lik manbainig kuchiga bog'liqligi, chiziqli prespektiva, havo perespektivasi; natyurmortda ishlash tartibi va qoidalari;

o'zbek miniatyura asarlari; Kamoliddin Bekzodning hayoti va ijodi; O'zbek rassom va haykaltaroshlari Sharq san'ati markazlari; ganchkor usta Shirin Murodov ijodining o'ziga xos tomonlari; O'zbekiston xalq amaliy san'ati rivoj topgan markazlar; ochiq Cheksiz naqshlar yopiq naqshlar, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi mashxur me'morchilik obidalari; kiyimlar va ularning turlari. Tasvirlanayotgan narsalarning konstruktiv tuzilishi; Sharqning miniatyurachi rassomlari; Sharq mamlakatlarining qadimiy me'morchilik obidalari Xirot, Dehli, Bombey, Pekin, Misr, Istambul, v.b.; U.Tansiqboevning hayoti va ijodining o'ziga xos xususiyatlari.

Badiiy ustaxona; badiiy ko'rgazma; mumtoz san'at; O'zbekiston xududidan topilgan qadimgi tasviriy va me'morchilik Varaxsha, Afrosiyob, Tuproq qal'a, Kuy, Bolalik tepa yodgorliklari;

O'zbekistonning qozirgi zamon tasviriy san'at ustalari va ularning asarlari; xorijiy mamlakatlarning ilg'or tasviriy san'at ustalari va ularning asarlari; O'zbekistonning hozirgi zamon me'morchiligi; Xorijiy mamlakatlarning hozirgi zamon ilg'or me'morchiligi, Yaponiya, Frantsiya, Meksika, Rossiya, Olmoniya v.b.; tasviriy va amaliy san'atni kishilar hayotidagi ijtimoiy ahamiyati bilan tanishtirish kerak.

ILOVALAR

















